

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**2013–2014-O‘QUV YILIDA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM
MAKTABLARINING 7–8-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN
ONA TILI, RUS TILI, FIZIKA, INFORMATIKA, XORIJIY
TIL, GEOGRAFIYA, DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI,
BIOLOGIYA FANLARIDAN BOSQICHLI IMTIHON
MATERIALLARI VA METODIK
TAVSIYALAR TO‘PLAMI**

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent–2014

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika Ta'lim markazi qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar tomonidan muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Maktab metodbirlashmalari imtihon biletlariga 15-20 % hajmda o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

ONA TILI

G. Ziyodullayeva – RTM, filologiya fanlari bo'limi bosh metodisti

RUS TILI

U. Yaminova – RTM, xorijiy tillar bo'limi bosh metodisti

Z. Atayeva – RTM, xorijiy tillar bo'limi bosh metodisti

FIZIKA

Z. Sangirova – RTM “Tabiiy va aniq fanlar” bo'limi bosh metodisti

N. Ahmedova – Toshkent shahar 226-maktab fizika o'qituvchisi

INFORMATIKA

B. Boltayev – RTM ta'lim jarayonini axborotlashtirish bo'limi bosh metodisti

XORIJIY TIL

I. Matniyozova – RTM, xorijiy tillar bo'limi boshligi

Sh. Boboyeva – RTM, xorijiy tillar bo'limi ingliz tili bosh metodisti

GEOGRAFIYA

E. Nazaraliyeva – Respublika ta'lim markazi tabiiy va aniq fanlar bo'limi geografiya fani bosh metodisti

H. Primova – Guliston shahar 16-umumta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

H. Ismatova – RTM, ijtimoiy-iqtisodiy bilim asoslari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi boshlig'i

BIOLOGIYA

I. Sapparboyev – RTM “Tabiiy va aniq fanlar” bo'limi bosh metodisti

B. Rahimova – Yunusobod tumanidagi 105 – maktabning biologiya fani o'qituvchisi

Nashr uchun mas'ul

N. Sh. Turdiyev

Imtihon materiallarini ko'paytirib tarqatish ta'qiqlanadi.

ONA TILI

7-sinf

Ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi.

Shu maqsadga ko'ra ona tili ta'limining mazmuni:

– o'quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish;

– o'quvchilarni o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishini ta'minlash vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan.

Ona tili ta'limi natijasida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar uch parametrli standart ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

1. O'qish texnikasi.

2. O'zgarlar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi.

3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi (tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrdagi mujassamlashadi.

Shu maqsadga ko'ra joriy o'quv yilida 7-sinfda ona tilidan bosqichli imtihon yozma ish, ya'ni diktant shaklida o'tkaziladi. Diktant o'quvchilarning savodxonligini tekshirish va oshirish, bilimlarini mustahkamlash maqsadlariga xizmat qiladi.

Diktantga quyidagi talablar qo'yiladi:

- yozma nazoratning bu turi o'quv yili davomida o'rganilgan mavzular yuzasidan bilim va malakalarni mustahkamlashga hamda tekshirishga xizmat qilishi;

- diktant uchun o'tilgan mavzularga to'la muvofiq keladigan va olingan bilimlarni sinash imkoniyatini beradigan material tanlanishi;

- tanlangan matn o'quvchiga ma'lum darslikdan olinmay, imkon qadar ijodiy bo'lishi, mustaqil o'qilgan yoki o'quvchiga notanish bo'lgan asarlardan olinib, ta'limiy, tarbiyaviy mohiyatga ega bo'lishi lozim.

Diktant matni 6 variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo'lib, bir o'quvchi 6 ta variantdan (konvertndan) bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertdagi matn sarlavhasi doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi tomonidan diktant matni bir marta o'qib eshittiriladi. Matndagi murakkab so'zlar doskaga yozib qo'yiladi. Diktant matni o'qituvchi tomonidan o'qib turib (diktovka usulida) yozdirib boriladi.

Diktantni baholashda quyidagicha mezonga amal qilinadi:

«5» ball: a) mutlaqo xatosiz yozilgan; b) qo‘pol bo‘lmagan bitta imlo yoki bitta ishorat xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi.

«4» ball: ikkita imlo va ikkita ishorat xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi. Xatolar nisbati o‘zgarishi mumkin, lekin ularning umumiy miqdori to‘rttadan, imlo xato esa ikkitadan oshmasligi kerak.

«3» ball: to‘rtta imlo hamda to‘rtta ishorat xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi. Xatolar nisbati 3 imlo, 5 ishorat xato va boshqa ko‘rinishlarda ham bo‘lishi mumkin. Ammo imlo xato miqdori 4 tadan oshmasligi shart.

«2» ball: yettigacha imlo va 7 ta ishorat xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi.

Xatolar miqdori 15 tadan ortsa, «1» ball qo‘yiladi.

Eslatma: 1. Diktantdagi xatolar nisbatan turlicha ko‘rinishda bo‘lishiga qaramay, baholashda imlo xatolar miqdori asosiy chegara sanaladi.

2. Agar diktantdagi tuzatishlar miqdori beshtadan ortiq bo‘lsa, baho bir ballga pasayadi.

3. Agar diktantda uch va undan ortiq tuzatish bo‘lsa, «5» ball qo‘yilmaydi.

Matn hajmi 120–150 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.

Diktant yozish uchun 1 astronomik soat (60 daqiqa) beriladi.

Diktant matnlaridan namuna

TINCHLIK – ENG ULUG‘ NE‘MAT

Vatan! Bu so‘z bizning qalbimizga ona allasidan, uning qaynoq muhabbatidan singadi. Agar ma‘lum bir muddat o‘z uyimizdan sal olisroqda yashab qolsak, ko‘nglimiz g‘ash bo‘laveradi. Har qanday ko‘ngilochar narsalar ham bizni quvontira olmaydi. Negaki, biz o‘z go‘shamizni qo‘msay boshlaymiz. Bu Vatanni sevishning bir ko‘rinishi emasmi? Vatanga muhabbat, uni ardoqlash, ona-Vatanga tegishli bo‘lgan har bir narsani muqaddas bilish, o‘zini shu Vatan kengliklariga daxldor deb his qilish haqiqiy insonlarga xos fazilatdir.

Bu aziz kunlarga xalqimiz osonlikcha erishgani yo‘q. Begunoh kishilarning muborak ruhlarini shod etmoq uchun Vatanimizning har bir fuqarosi qo‘lidan kelganicha xayrli ishlarni bajarishi shart. Shukurlar bo‘lsinki, mustaqillik degan buyuk ne‘matga erishgach, buyuk kelajak barpo etishga kirishildi. Buning uchun esa mustaqilligimizni yanada mustahkamlash uchun intilishimiz kerak. O‘zbekistonning kelajagi biz yoshlarning qo‘lida.

(120 so‘z. “Dillarda vatan madhi”)

OLTIN YAPROQLAR

Dam olish kunlaridan biri edi. Ko‘chaga chiqdim. Kech kuz bo‘lsa ham havo ochiq, quyosh charaqlab turardi. Hamma yoqda yaproqlar: oq, sariq, yashil yaproqlar. Go‘yo ko‘chaga chiqqishingizni kimdir bilganu yo‘lingizga gilam to‘shab qo‘ygan.

Har yili kuzda, xazonrez paytida menga shunday tuyuladi. Shuning uchun ham ko'chaga chiqaman, serdaraxt xiyobonlarni uzoq-uzoq aylanaman.

Quyoshning so'nggi shu'lalari so'ndi. Tepaga qaradim. Ko'k betini parcha-parcha qora bulutlar qoplab olgan edi. Ko'p o'tmay, qayinzorni tasir-tusur tovushlar qoplab, yomg'ir yog'a boshladi.

Yerda tangadek ochiq joy qolmadi. Hammasini xazon qopladi. Yomg'ir zarbidan barglar duv-duv to'kilardi.

Bir mahal qayinzor yorishdi. Yomg'ir siyraklashdi. Yuzimdagi yomg'ir tomchilarini yengim bilan sidirib, tepamga qaradim. Qaradimu, ko'zlarim qamashib ketdi. Ro'paramdagi qayinning eng yuqori shoxida bir narsa xuddi oltindek tovlanib turardi. Qo'limni soyabon qilib yaxshilab qaradim. Bu oddiy yaproq, sap-sariq qayin yaprog'i edi. Yaproq quyosh nurida oltindek tovlanib, yengil tebranganicha ko'kka dadil bo'y cho'zib turardi.

(120 so'z. O'.Umarbekov)

BELBOG'

O'sha paytlar yosh bola edim. Ko'zimda o't chaqnaq turardi. O'yindan boshqa tashvishim yo'q edi. Ba'zi narsalarga aqlim ham yetardi. Bir kuni onam chaqirib qoldi. Qo'llarida nimadir bor edi. Qand bo'lsa kerak. Yo'q. Boshqa narsa ekan. Borganimdan so'ng uni belimga bog'lab qo'ydi. Onamdan buni nima ekanligini so'radim. Bu belbog' seniki. Otangda ham bor, bobongda ham bor, uning bobosida ham bo'lgan. Shu-shu bu belbog' menga aziz bo'lib qoldi. Chang-dog' tegmasin deb asradim. Iplari so'kilmasin, deb juda hushyor bo'ldim. Yoshim ulg'aygan sari uni ham ko'proq yaxshi ko'raverdim. Birovga berishni xayolimga ham keltirmadim. Endi u orim, nomusim, g'ururimga aylangandi. Unda otamning qo'llari, onamning nurli siyмосi, yaqinlarimning tafti bor. Ajdodlarimning bo'yli bor unda. Shukur, belbog'im-orim, faxrim, bor-budim o'zimda. Belbog'imdagi «Vatan» degan yozuvni ko'zlarimga surtaman.

(122 so'z. Behzod Fazliddin)

SUV – MUQADDAS NE'MAT

Suv – yerda eng ko'p tarqalgan suyuqlik hisoblanadi. U asosan sayyoramizning uch butun o'ndan ikki qismini egallagan. Dengiz va okeanlardan jamlangan. Ko'l va daryolar, Arktika va Antarktida muzlari ham suvdan iborat. Suv havoda bug' ko'rinishida ham bo'ladi. Hatto odam tanasining deyarli 2/3 qismi ham suvdan tashkil topgan.

Yer kurrasidagi umumiy suv miqdori o'zgarmaydi. Okean, dengiz, daryo va ko'l yuzidagi suvlar bug'lanib, bulutlar hosil bo'ladi. Ular esa yomg'ir yoki qor bo'lib yog'ib, yana yer va okeanlarga tushadi.

Yer yuzida aholi iste'mol qiladigan toza suv miqdori borgan sari kamayib bormoqda. Odamlar sanoat ehtiyojlari uchun mo'ljallangan suvdan ko'proq foydalanmoqdalar. Aksariyat hollarda korxonalar chiqindilari bilan suv

ifloslanmoqda. Injenerlar suvni tozalashning turli usullarini topmoqdalar. Mamlakatimizda chiqindilar va oqava suvlarni suv havzalariga oqizish taqiqlangan. Har doim esingizda bo'lsin: suvni asrang, uni isrof qilmang.

(121 soʻz. “Bolalar ensiklopediyasi”dan)

YIL FASLLARI

Yer quyosh atrofini bir yilda bir marta aylanib chiqadi. Shu davrda u oʻz sirtini Quyoshga har xil vaziyatda “tutib” beradi. Quyosh osmonda baland koʻtarilganda, uning nurlari Yerga toʻgʻri tushib, uni kuchliroq qizdiradi va Yer yuzi issiq boʻladi. Quyosh uncha baland koʻtarilmay, uning nurlari Yerga qiyalab tushganda, yerni paypaslab oʻtib ketgandek boʻladi va Yer yuzida sovuq turadi.

Qishdan keyin bahor, bahordan keyin yoz keladi. Yozning qoq oʻrtasida – 22-iyunda yozgi Quyosh turishi yuz beradi. Endi yoz oʻzining haqiqiy kuchini koʻrsatadi. Kunlar juda isiydi, bolalar suvdan chiqmay qolishadi. Biroq hademay kuz yaqinlashib, uning baʼzi alomatlari paydo boʻla boshlaydi. Kunlar qisqarib, tunlar uzayadi. Asta-sekin daraxtlarning bargi sargʻayib toʻkila boshlaydi. Hademay daraxtlar yap-yalangʻoch boʻlib shumshayib qoladi, tabiat qorni kuta boshlaydi. Shu tarzda fasllar almashina- almashina yil oʻtadi. Azaldan bu jarayon takrorlangani-takrorlangan.

(129 soʻz. “Bolalar ensiklopediyasi”dan)

BAHOR

Lola sayli juda gashtli boʻldi. Quyosh tepamizga kelguncha, ikki quchoq –ikki quchoqdan lola terib qoʻydik. Sobirjonning sevinchi ichiga sigʻmasdi. Kasaldan yaqinda turgan boʻlsa ham, xuddi yosh boladek u yoqdan-bu yoqqa sakrab chopar, koʻm-koʻk maysalar ustiga dumalardi. Biz borgan joy haqiqatan ham goʻzal edi. Bir tomoni togʻ, bir tomoni koʻm-koʻk dala. Olisda kumushdek tovlanib daryo oqmoqda. Lolazor esa, xuddi mohir toʻquvchi qoʻlida toʻqilgan chorsi gilamga oʻxshardi.

Yoʻlga tushdik. Mashina isib ketdi. Dala joyda shunday boʻladi. Sobirjonning peshonasini hatto ter qoplay boshladi. Oynani tushirdim. Gup etib muzdek havo yuzga urildi. Tez ketayotgan ekanman.

Kun ogʻa boshlagan edi. Qishloqqa kirdik. Ikki tomonimizdan bargak yozgan tollar lipillab oʻta boshladi. Peshayvonli sariq bino oldidan oʻtayotganimizda bir bogʻlam siren koʻtargan kichkina qizcha bizga qoʻl silkib qoʻydi. Tabiat bilan baravar koʻz ochasan. Goʻzallikdan boshqa narsani koʻrmaysan. Mashina soy boʻyiga yaqinlashdi. Choyxona shu yerda edi.

(130 soʻz. Oʻ. Umarbekov)

РУССКИЙ ЯЗЫК

Переводный экзамен по русскому языку в 7 классе школ с узбекским и другими языками обучения проводится в устной форме.

Билеты для 7 класса включают в себя по три задания:

1-е – на проверку уровня усвоения изученного в течение учебного года грамматического материала;

2-е – на проверку умений применения полученных грамматических знаний при составлении высказываний по описанным темам и ситуациям;

3-е – на проверку уровня усвоения содержания изученных в течение учебного года литературных текстов; навыков сознательного беглого чтения и пересказа отрывков прозаических произведений и выразительного чтения стихотворений.

Критерии оценки устных ответов учащихся

«5»	Выставляется: – если объём высказывания учащегося соответствует требованиям программы, если высказывание полностью соответствует заданиям. Допускается не более 1-2 речевых ошибок.
«4»	– если высказывание соответствует заданиям, при этом допущено более 3-5 речевых ошибок.
«3»	– если объём высказывания недостаточно полный, но соответствует заданиям, при этом допущено не более 6-9 речевых ошибок.
«2»	– если объём высказывания неполный, высказывание не соответствует заданиям, допущено 10 и более речевых ошибок.
«1»	– если учащийся не сумел ответить ни на одно задание, составить ни одной фразы.

Примечание: Под речевой ошибкой, понимается ошибка общая для устной и письменной речи, которая ясно воспринимается на слух («светлый комната», «пёт воду», «читать книга») и т.д.). В число подсчитываемых на слух ошибок включаются лексические и грамматические.

Билет № 1

1. Образуйте от данных имён прилагательных имена существительные **Скромный, вежливый, храбрый, независимый, молодой, смелый, воспитанный, застенчивый.**

2. Опишите главные черты характера вашего друга (вашей подруги), употребив существительные с суффиксом **-ость**.

3. Прочитайте наизусть стихотворение А.С.Пушкина «Осень».

Билет № 2

1. Напишите, раскрыв скобки. Объясните правописание сложных прилагательных.

Тёмно (красная) роза, чёрно (белый) платок, жёлто (синий) флаг, хлопко (уборочная) машина, тепло (любивое) растение, юго (западный) ветер.

2. Опишите флаг Республики Узбекистан.

3. Прочитайте наизусть отрывок из поэмы А.С.Пушкина «Руслан и Людмила»

Билет № 3

1. От данных полных имён прилагательных образуйте краткую форму.

Сильный зверь –

Трусливый заяц –

Красивая природа –

Огромное небо –

Вредные привычки –

2. Расскажите о Красной книге.

3. Прочитайте наизусть отрывок из стихотворения М.Ю.Лермонтова «Бородино».

Билет № 4

1. Прочитайте и напишите, заменив цифры словами.

164 + 12 = 176 89 – 78 = 11

2. Расскажите, сколько вам лет, сколько лет вашим родителям, братьям сёстрам.

3. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа Д.Н. Мамина-Сибиряка «Приёмьш».

Билет № 5

1. Спишите, заменив цифры словами.

На Земле насчитывается более 2000 языков. Но только на 5 языках – английском, русском, китайском, испанском, хинди – говорят более 100 000 000 человек.

2. Расскажите о том, что вы хотите купить в магазине «Канцтовары», назовите приблизительную сумму каждого купленного предмета и общую сумму потраченных денег.

3. Прочитайте наизусть отрывок из поэмы Н.А.Некрасова «Мороз-Красный нос».

Билет № 6

1. Прочитайте и запишите порядковые числительные словами.

428 страница, 1 000 000 житель, 115 место, 18 ряд, 214 дом, 365 день.

2. Расскажите свою биографию.

3. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа Л.Н.Толстого «Акула».

Билет № 7

1. Спишите предложения, вставив неопределённые местоимения.

Звонок прозвенел через ... минут.

Подруги о ... спорили.

Мне нужно с ... посоветоваться.

На столе лежали ... рисунки.

2. Расскажите о каком-либо случае из вашей жизни, употребив неопределённые местоимения.

3. Прочитайте наизусть стихотворение Ф.И.Тютчева «Весенние воды».

Билет № 8

1. Назовите и выпишите отрицательные местоимения.

Некто, никто, некому, никому, кто-то, ничем, чем-то, кто-либо, не о чем.

2. Ответьте на вопросы, употребив отрицательные местоимения.

– *Какой рассказ тебе понравился?*

– *О чём ты рассказал(а) своему другу (своей подруге)?*

– *С кем ты познакомился (познакомилась)?*

3. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа А.П.Чехова «Мальчики».

Билет № 9

1. Спишите, вставив указательные местоимения.

... снежный барс.

... зверь обитает в горах.

Я хочу рассказать об ... животном.

... животных во всём мире осталось очень мало.

2. Расскажите о каком-либо животном, употребив указательные местоимения.

3. Прочитайте наизусть стихотворение Ф.И.Тютчева «Весенняя гроза».

Билет № 10

1. Составьте и напишите словосочетания, подобрав к данным глаголам имена существительные в нужном падеже.

Встречать ..., ждать ..., учить ..., уважать ..., слушать ..., благодарить ..., любить ...

2. Расскажите о древнем новогоднем празднике Навруз.

3. Прочитайте наизусть стихотворение А.А. Фет «Я пришёл к тебе с приветом ...».

Билет № 11

1. Назовите безличные глаголы.

Наступила весна.

В воздухе пахнет грозой.

Ребёнок не спит.

Ребёнку не спится.

Зимой рано темнеет.

2. Составьте предложения, употребив безличные глаголы: смеркается, морозит, светлеет.
3. Прочитайте и расскажите отрывок из рассказа А.И.Куприна «Слон».

Билет № 12

1. Преобразуйте данные предложения в словосочетания, употребив действительные причастия настоящего времени.

Дети танцуют на сцене.

Ученик отвечает у доски.

Футболисты играют на стадионе.

Машина собирает хлопок.

2. Охарактеризуйте ваших одноклассников по их действиям.
3. Прочитайте наизусть стихотворение С.А.Есенина «Черёмуха».

Билет № 13

1. Образуйте от данных глаголов действительные причастия прошедшего времени.

Написать, прочитать, ответить, изучить, нести, выполнить.

2. Охарактеризуйте одноклассников по действиям, которые они совершили, употребив действительные причастия прошедшего времени.

3. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа К.Г.Паустовского «Барсучий нос».

Билет № 14

1. Прочитайте и выпишите имена существительные, которые употребляются только в единственном числе.

Молоко, мясо, капуста, помидор, огурец, яблоко, айва, хурма, рис, мука, баклажан, картофель.

2. Расскажите, какие продукты необходимо купить, чтобы приготовить плов.
3. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа К.Г.Паустовского «Кот-ворюга».

Билет № 15

1. Образуйте от данных глаголов страдательные причастия настоящего времени. Подчеркните глаголы, от которых нельзя образовать страдательные причастия.

Ожидает, оберегает, уважает, отдыхает, растёт, сидит.

2. Расскажите о исторических памятниках, охраняемых государством.
3. Прочитайте наизусть стихотворение С. А. Есенина «Колокол дремавший...»

Билет № 16

1. Образуйте от данных глаголов страдательные причастия прошедшего времени.

*Получил –
прочитал –
обещал –
построил –
собрал –
приготовил –
забил –
сшил –
пожарил –*

2. Расскажите, что вы знаете о чипсах, употребив страдательные причастия прошедшего времени.

3. Прочитайте наизусть отрывок из стихотворения И.С. Никитина «Утро».

Билет № 17

1. Составьте из двух предложений одно, употребив деепричастия несовершенного вида.

*По небу плывут облака. Они закрыли солнце.
Мама сидит на скамейке. Она наблюдает за детьми.
Нигора вышивает. Она слушает музыку.*

2. Расскажите о том, как вы проводите свободное время, как отдыхаете. Употребите в речи деепричастия несовершенного вида.

3. Прочитайте и перескажите отрывок из «Повести о настоящем человеке» Б.Н.Полевого.

Билет № 18

1. Замените глаголы, данные в скобках, деепричастиями совершенного вида.

*(Открыть) книгу, помни, что ты должен прочитать её до конца.
(Выполнить) домашнее задание, ты можешь выйти поиграть.
(Научиться) читать медленно, ты приобретёшь навыки быстрого*

правильного чтения.

2. Расскажите о том, как надо ремонтировать книги.

3. Прочитайте и перескажите отрывок из «Повести о настоящем человеке» Б.Н.Полевого.

Билет № 19

1. Охарактеризуйте действия, вставив наречия образа действия.

Учится ..., бежит ..., говорит ..., работает ..., слушает ..., отвечает ..., смеётся ...

2. Охарактеризуйте действия своих одноклассников на уроке, употребив наречия образа действия.

3. Выразительно прочитайте стихотворение А.Т.Твардовского «Рассказ танкиста». Охарактеризуйте поступок мальчика.

Билет № 20

1. Назовите и выпишите словосочетания с наречиями образа действия.
Красивый дом, красиво пишет, долгий путь, долго думал, озеро глубоко, ныряет глубоко, утро прекрасно, выглядит прекрасно, дружные ребята, живут дружно.
2. Расскажите о своей семье, употребив наречия образа действия.
3. Прочитайте отрывок из «Повести о настоящем человеке» Б.Н.Полевого.
Расскажите о схватке Алексея с фашистским асом в небе.

Билет №21

1. Образуйте степени сравнения наречий.
*Высокий –
спокойный –
радостный –
быстрый –
осторожный –
низкий –*
2. Сравните действия ваших одноклассников, употребив разные формы сравнительной степени наречий.
3. Прочитайте наизусть стихотворение Раима Фархади «Узбекистан».

Билет № 22

1. Образуйте словосочетания, употребив наречия места или времени.
Идти ..., запомнить ..., повернуть ..., встать ..., торопиться ...
2. Расскажите о том, где вы будете отдыхать летом, когда и куда хотите поехать. Употребите наречия времени и места.
3. Прочитайте наизусть одно из стихотворений А.С.Пушкина, которое вам нравится.

Билет № 23

1. Назовите и выпишите наречия причины и цели.
Устно, однажды, потом, назло, незря, случайно, сгоряча, потому, специально, поэтому, нарочно.
Наречия причины: _____
Наречия цели: _____
2. Расскажите о том, почему надо закаливать свой организм. Употребите наречия цели и причины.
3. Прочитайте наизусть отрывок из стихотворения М.Ю.Лермонтова «Бородино».

Билет № 24

1. Вставьте в предложения отрицательные наречия.
Маме отдохнуть ...
В этом году я ... не ездил.

Анвар ещё ... не бывал.

Другу ... было идти.

2. Ответьте на вопросы, употребив отрицательные наречия.

Куда ты пойдёшь завтра?

Где ты был вчера?

Когда ты был в лесу?

3. Прочитайте и перескажите отрывок из произведения Марка Твена «Приключения Гекльберри Финна»

Билет № 25

1. Подчеркните существительные обозначающие профессии, от которых нельзя образовать существительные женского рода.

Переводчик, артист, юрист, продавец, врач, экономист, профессор, воспитатель, спортсмен, дизайнер, библиотекарь.

2. Расскажите, кем вы хотите стать, какие черты характера вам необходимо для этого развить.

3. Перескажите содержание рассказа Л.Н.Толстого «Акула».

7-sinf

FIZIKA

2013–2014 o‘quv yilida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining VII sinfini tugatgan o‘quvchilarning fizika fanidan egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida bosqichli nazorat bilet savollari shaklida og‘zaki usulda o‘tkaziladi. Tayyorgarlik ko‘rish uchun 20 minut vaqt beriladi.

Bosqichli nazorat savollari fizika fanidan VI–VII sinflar bo‘yicha optimallashtirilgan DTS va o‘quv dasturlari asosida tuzilgan bo‘lib, 1 ta biletida 3 tadan topshiriq berilgan.

Har bir o‘quvchiga 2 ta nazariy 1 ta amaliy topshiriq beriladi.

Birinchi nazariy savol VI sinfda, 2-nazariy savol VII sinfda olgan bilimlarini, 3-topshiriq esa o‘quvchilarning VI–VII sinflarda egallagan ko‘nikma va malakalarini aniqlaydi.

Bosqichli nazorat ishlarini muvaffaqiyatli topshirish uchun o‘quvchi VI–VII sinflar bo‘yicha fizika fanidan DTS va o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni to‘liq egallashlari lozim.

O‘quvchilar mavzularda berilgan qonunlarning ta‘rifi, formulalari, birliklari, ularning amaliyotda qo‘llanilishini misollar orqali tushuntirishlari lozim.

Bosqichli nazoratning har bir savoli o‘quvchi uchun «5» ballik reyting asosida baholanadi. Ballar umumlashtirilib, o‘rtacha ball chiqariladi.

Masalan: $5+4+3=12:3=4$. O‘quvchilar quyidagi mezon orqali baholanadi.

Nazariy savollar quyidagicha baholanadi

№	Baholash mezon	Ball
1.	O‘quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma‘nosini to‘la ochib bersa, ularni hisoblash formulalarini, birliklarini to‘g‘ri keltirib chiqarib tushuntirib bersa	5 ball
2.	O‘quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma‘nosini to‘la ochib, asosiy tushunchalar va fizik kattaliklarni keltirib chiqarishda juziy xatoliklarga yo‘l qo‘ysa	4 ball
3.	O‘quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma‘nosini ochib berib, formulalarni, birliklarini tushuntirishda xatoliklarga yo‘l qo‘ysa	3 ball
4.	O‘quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma‘nosini qisman ochib berib, keltirilgan formulalarda, birliklarda xatoliklar bo‘lsa	2 ball
5.	O‘quvchi hodisa va qonuniyatlarni ochib bera olmasa, ba‘zi formulalarni yozib ko‘rsata olsa	1 ball

Masala yechish quyidagi mezon bilan baholanadi

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma'nosini to'la ochib bersa, asosiy tushunchalar, qonunlarni qo'llab masalani, to'g'ri yechsa, masala uchun chizma shart bo'lib, chizmalar to'g'ri chizilgan bo'lsa, fizik kattaliklar va ularning birliklarini to'g'ri keltirib chiqargan bo'lsa	5 ball
2.	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma'nosini to'la ochib bersa, asosiy tushunchalar, qonunlarni qo'llab masalani to'g'ri yechsa, fizik kattaliklarning birliklarini to'g'ri keltirib chiqargan bo'lsa, masala uchun chizma shart bo'lib, chizmani chizishda juziy kamchilikka yo'l qo'ysa	4 ball
3.	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma'nosini ochib bersa, asosiy tushunchalar, qonunlarni qo'llab masalani yechishda xatolikka yo'l qo'ysa, masala uchun chizma shart bo'lib, chizma noto'g'ri chizilgan, fizik kattaliklarni belgilashda xatoliklarga yo'l qo'ysa	3 ball
4.	O'quvchi masalani yechish uchun fizik kattaliklarni, formulani yozgan, masalani yechishga harakat qilingan, fizik kattaliklar birligini umuman keltirib chiqarmasa	2 ball
5.	O'quvchi masala shartida berilgan fizik kattaliklarni yozgan, masalani umuman yechmagan bo'lsa	1 ball

Laboratoriya ishini baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Tajriba va o'lchash ishlari tegishli ketma-ketlikda xavfsizlik texnikasiga rioya qilib bajarilsa, kerakli jihozlardan mustaqil foydalana olsa, tajriba natijalarining absolut, nisbiy xatoliklarini to'g'ri hisoblay olsa va jadval asosida xulosani to'g'ri chiqargan bo'lsa	5 ball
2.	Tajriba va o'lchash ishlari tegishli ketma-ketlikda xavfsizlik qoidalariga rioya qilib bajarilsa, kerakli jihozlardan mustaqil foydalana olsa, tajriba natijalarining absolut, nisbiy xatoliklarini to'g'ri hisoblay olsa va jadval asosida xulosani to'g'ri chiqarishda juziy kamchilikka yo'l qo'ygani bo'lsa	4 ball
3.	Tajriba va o'lchash ishlari tegishli ketma-ketlikda xavfsizlik qoidalariga rioya qilib bajarilsa, kerakli jihozlardan mustaqil foydalana olsa, tajriba natijalarining absolut, nisbiy xatoliklarini hisoblashda va jadval asosida xulosani to'g'ri chiqarishda kamchiliklarga yo'l qo'ygani bo'lsa	3 ball
4.	Tajriba va o'lchash ishlari tegishli ketma-ketlikda xavfsizlik qoidalariga rioya qilib bajarilmasa, kerakli jihozlarni mustaqil foydalana olmasa, tajriba natijasini olishda xatolikka yo'l qo'ysa va xulosalarni yozishda xatolikka yo'l qo'ygani bo'lsa	2 ball
5.	Tajriba va o'lchash ishlarida tegishli ketma-ketlikka rioya qilinmasa, tajriba bajarishga harakat qilinsa, lekin natijasi xato bo'lsa.	1 ball

1-BILET

1. Tekis va notekis harakat. Tezlik va uning birliklari.
2. Nyutonning birinchi qonuni.
3. Avtomobil 90 km/soat tezlik bilan harakatlanganda g'ildiraklarining aylanish chastotasi 10 1/s bo'lsa, g'ildirakning yerga tegadigan nuqtalarining markazga intilma tezlanishini toping.

2-BILET

1. Modda tuzilishi haqida Demokrit va vatandoshlarimiz Al-Xorazmiy, Beruniy va Ibn Sino ta'limotlari.
2. Tekis o'zgaruvchan harakatda tezlik, tezlanish, bosib o'tilgan yo'l.
3. Gidravlik press kichik porsheniga 100 N kuch ta'sir ettirilganda, katta porshendan 4000 N kuch olindi. Agar katta porshen yuzasi 200 sm² bo'lsa kichik porshen yuzasi nimaga teng?

3-BILET

1. Temperatura. Termometr. Jismning temperaturasini o'lchash.
2. To'g'ri chiziqli tekis harakat. Notekis harakatda tezlik.
3. Agar reaktiv samolyot dvigatelining tortishish kuchi 90 kN bo'lsa, massasi 60 t bo'lgan samolyot tezlik olish vaqtida qanday tezlanish bilan harakatlangan?

4-BILET

1. Atmosfera bosimi. Torrichelli tajribasi.
2. Tekis o'zgaruvchan harakatda tezlanish.
3. Laboratoriya ishi: Prujinaning bikirligini aniqlash.

5-BILET

1. Qattiq jism, suyuqlik va gazlarning molekular tuzilishi. Diffuziya hodisasi.
2. Tekis o'zgaruvchan harakatda bosib o'tilgan yo'l.
3. Laboratoriya ishi: Jism tezlanishining massaga va qo'yilgan kuchga bog'liqligini o'rganish.

6-BILET

1. Jismlarning o'zaro ta'siri. Kuch.
2. Aylanma tekis harakatda, chiziqli va burchakli tezlik, tezlanish.
3. Avtomobil 30 km uzunlikdagi yo'lning birinchi qismini o'rtacha 15 m/s tezlik bilan o'tdi. Qolgan 18 km ni 1 soatda o'tdi. Avtomobilning butun yo'ldagi o'rtacha tezligi nimaga teng?

7-BILET

1. Oddiy mexanizmlar (blok, qiya tekislik, vint, pona, chig'iriq).
2. Elastiklik kuchi. Guk qonuni.

3. Gorizontal sirtida massasi 400 g boʻlgan sharcha 1 m/s tezlikda ikkinchi sharcha bilan toʻqnashdi. Shundan keyin birinchi sharcha 0,4 m/s tezlik bilan harakatini davom ettirdi. Urilish paytida birinchi sharchaning impulsi qanchaga oʻzgargan?

8-BILET

1. Bosim va uning birliklari. Paskal qonuni.
2. Yerning sunʼiy yoʻldoshlari.
3. Velosipedchi qiyalikdan pastga qarab 0,3 m/s² tezlanish bilan harakatlanmoqda. Agar velosipedchining boshlangʻich tezligi 4 m/s boʻlsa, 20 s dan soʻng uning tezligi qanchaga yetadi?

9-BILET

1. Suyuqlik va gazlarda bosim.
2. Ishqalanish kuchi. Tinchlikdagi ishqalanish.
3. Dinamometr osilgan jism benzina tushirilgan. Bunda dinamometrning koʻrsatishi havodagiga nisbatan 8 marta kichik boʻldi. Jismning zichligini toping. Benzin zichligi 700 kg/m³.

10-BILET

1. Qattiq jism, suyuqlik va gazlarda issiqlik uzatilishi. Konveksiya. Nurlanish.
2. Quvvat va uning birliklari.
3. Laboratoriya ishi: Sirpanish ishqalanish koeffitsientini aniqlash.

11-BILET

1. Mexanizmlarning FIK. Mexanikaning oltin qoidasi.
2. Sirpanish ishqalanish. Dumalanish ishqalanish.
3. Koʻlning qanday chuqurligida bosim 500 kPa boʻladi? Atmosfera bosimi 100 kPa, suv zichligi 1000 kg/m³, $g=10 \text{ m/s}^2$.

12-BILET

1. Linzalar haqida tushuncha.
2. Mexanik energiyaning saqlanish va aylanish qonuni.
3. Ip qoʻzgʻalmas blokdan oʻtkazilib, bir uchiga 15 N, ikkinchi uchiga 25 N ogʻirlikdagi yuklar osilgan boʻlsa, ular qanday tezlanish bilan harakatlanadi.

13-BILET

1. Jismlarning mexanik harakati. Trayektoriya. Jismlarning bosib oʻtgan yoʻli va unga ketgan vaqt, birliklari.
2. Nyutonning ikkinchi qonuni.
3. Laboratoriya ishi: Yassi koʻzgu yordamida yorugʻlikning qaytishini oʻrganish.

14-BILET

1. Jismlarning massa markazi va uni aniqlash. Muvozanat turlari.
2. Mexanik ish va uning birligi.
3. Massasi 2 kg bo'lgan yog'och brusok gorizontal joylashgan taxta ustida bikirligi 100 N/m bo'lgan prujina yordamida tortiladi. Ishqalanish koeffitsienti 0,3 ga teng. Bunga prujinaning uzayishini toping.

15-BILET

1. Ichki yonuv dvigatellari. Bug' trubinasi.
2. Jismning og'irligi. Og'irlik kuchi.
3. Loyli yo'lda botib qolgan avtomobil qo'zg'ala olmay g'ildiragidan 10 m/s tezlikda loy parchalari otarmoqda. Agar avtomobil g'ildiragining diametri 1 m, otilayotgan loy parchalarining o'rtacha massasi 5 g bo'lsa, loy parchalari qanday kuch bilan otarmoqda?

16-BILET

1. Tovush manbalari. Tovushning turli muhitlarda tarqalishi.
2. Yuklama va vaznsizlik.
3. Massasi 1 kg bo'lgan jism 180 m balandlikdan erkin tushmoqda. Jism harakatining oltinchi sekund oxiridagi kinetik va potensial energiyalari qancha bo'ladi?

17-BILET

1. Energiya va uning turlari.
2. Yerning tortishish kuchi ta'sirida jismlarning harakati. Birinchi kosmik tezlik.
3. Laboratoriya ishi: Qattiq jismning zichligini aniqlash.

18-BILET

1. Issiqlik manbalari. Jismlarning issiqlikdan kengayishi.
2. Kuch impulsi va jism impulsi. Impulsning saqlanish qonuni.
3. 5 minutda 5 m balandlikka 4,5 m³ suv chiqaradigan nasosning o'rtacha quvvatini aniqlang. Suvning zichligi $\rho=1000 \text{ kg/m}^3$. $g=10 \text{ m/s}^2$.

19-BILET

1. Yorug'likning tezligi. Yorug'likning qaytishi va sinishi.
2. Nyutonning uchinchi qonuni.
3. Massasi 1 t bo'lgan avtomobilni 1 m/s² tezlanish bilan shatakka olishda bikirligi 100 kN/m bo'lgan tros qancha cho'ziladi. Ishqalanish hisobga olinmasin.

20-BILET

1. Zichlik va uning birliklari.
2. Reaktiv harakat. Raketaning tuzilishi.
3. Massasi 6 t bo'lgan yuk ortilmagan (bo'sh) yuk avtomobili 0,6 m/s² tezlanish bilan harakatlana boshladi. Agar avtomobil o'sha tortish kuchida joyidan 0,4 m/s² tezlanish bilan qo'zg'alsa, avtomobilga ortilgan yukning massasi qanday?

21-BILET

1. Kuch momenti. Richag va uning muvozanat sharti.
2. Potensial energiya.
3. Diametri 30 sm bo'lgan charx diski minutiga 1800 marta aylanmoqda. Pichoq charxlanayotgan paytda charx diski sirtidan uchqunlar qanday tezlik bilan uchib chiqmoqda.

22-BILET

1. Shisha prizma yordamida yorug'likning tarkibiy qismlarga ajralishi. Kamalak.
2. Butun olam tortishish qonuni.
3. Ob-havo ma'lumotida sekundiga 20 metr tezlik bilan shamol esadi deyildi. Shamolning tezligini $\frac{\text{km}}{\text{soat}}$ larda ifodalang.

23-BILET

1. Yorug'lik manbalari. Quyosh va Oy tutilishi.
2. Jismlarning harakati. Fazo va vaqt.
3. Richagning uzun yelkasiga 500 N kuch qo'yilib massasi 245 kg bo'lgan yuk 6 sm yuqoriga tekis ko'tarildi, bunda kuchning qo'yilish nuqtasi 0,3 m pastga tushdi. Richagning FIK toping.

24-BILET

1. Arximed qonuni.
2. Kinematikaning asosiy tushunchalari (moddiy nuqta, trayektoriya, yo'l va ko'chish, ilgarilanma harakat)
3. Jism minoradan gorizontal yo'nalishda 15 m/s boshlang'ich tezlik bilan otildi. U minoradan 60 m uzoqlikka borib yerga tushdi? Jismning yerga tushish vaqtini va minoraning balandligini toping.

25-BILET

1. Ichki energiya va uni o'zgartirish usullari.
2. Kinetik energiya.
3. Odam o'z yuzini to'liq ko'rishi uchun diametri 5 sm bo'lgan qavariq ko'zguni qancha uzoqlikda tutishi kerak? Ko'zguning fokus masofasi 7,5 sm, yuzining uzunligi 20 sm.

INFORMATIKA

7-sinf

Tushuntirish xati

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinflarida Informatika fanidan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida bosqichli nazorat imtihoni yozma shaklda o'tkaziladi. Yozma ishlarni bajarish uchun har bir o'quvchiga bittadan bilet beriladi. Har bir biletga uchtdan topshiriq keltirilgan.

Nazorat ishlari zamonaviy kompyuter bilan ta'minlanmagan va ta'minlangan maktablar uchun mo'ljallangan.

Topshiriqlar Davlat ta'lim standartlariga hamda 7-sinf informatika fanining modernizatsiyalashgan o'quv dasturiga to'la mos holda tuzilgan.

O'quvchilar yozma ishini daftarda bajaradilar. Yozma ish topshiriqlarini bajarish uchun 1 astronomik soat (60 minut) vaqt ajratiladi.

Informatika fani chuqurlashtirib o'tiladigan maktab (sinf) ma'muriyati informatika fani o'qituvchilarining metodik birlashmasi qarori bilan 7-sinf o'quv dasturiga mos ravishda har bir biletga bittadan qo'shimcha amaliy topshiriq kiritishi lozim. Shu sababli o'quvchilarga yechimlarni izohlash uchun qo'shimcha ravishda yarim astronomik soat (30 daqiqa) vaqt beriladi.

Yozma ish topshiriqlari o'quvchilarning quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashni ko'zda tutadi.

Nazorat ishidagi yozma ish topshiriqlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Topshiriqni yoritilishiga qo'yiladigan talablar	Ballar
Topshiriq to'liq bajarilgan, ya'ni quyidagi bandlar to'liq bajarilgan bo'lsa: 1) topshiriq bajarilishi to'g'ri mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan; 2) har bir qadam xato va kamchiliklardan holi; 3) topshiriq asoslab izoh bilan bayon etilgan; 4) topshiriqqa mos ilovalar (rasmlar, jadvallar va hokazo) keltirilgan; 5) xulosa (javob) chiqarilgan.	5
Topshiriq bajarilgan, lekin quyidagi bandlardan bittasida kamchilik bo'lsa: 1) topshiriq bajarilishi to'g'ri mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan; 2) har bir qadam xato va kamchiliklardan holi; 3) topshiriq asoslab izoh bilan bayon etilgan; 4) topshiriqqa mos ilovalar (rasmlar, jadvallar va hokazo) keltirilgan; 5) xulosa (javob) chiqarilgan.	4

Topshiriq bajarilgan, lekin quyidagi bandlardan uchtasida kamchilik bo'lsa: 1) topshiriq bajarilishi to'g'ri mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan; 2) har bir qadam xato va kamchiliklardan holi; 3) topshiriq asoslab izoh bilan bayon etilgan; 4) topshiriqqa mos ilovalar (rasmlar, jadvallar va hokazo) keltirilgan; 5) xulosa (javob) chiqarilgan.	3
Topshiriq o'quvchi tomonidan tushunilgan, lekin uni hal etishda kerak bo'ladigan ma'lumotlardan to'g'ri foydalana olmagan. Topshiriqni yechishda kamchiliklar ko'pligidan to'g'ri yechimga erisholmagan, lekin topshiriqni yechishda keltirilgan ayrim to'g'ri mulohazalar yuritgan.	2
Topshiriq o'quvchi tomonidan tushunilgan, bajarishga harakat qilingan, lekin bajarilmagan.	1

1-bilet

- Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
a) $10010_2 + 1 \cdot 2^7 + 1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^0$ b) O'tkazishni bajaring: $BABE_{16} \rightarrow X_2$
- 64 KBli faylda saqlash mumkin bo'lgan kitob betlarining eng katta soni (1 betda har biri 64 belgili 32 satr bo'lsa) necha?
- Informatika fani va axborot haqida ma'lumot bering.

2-bilet

- Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
a) $1101011_2 - (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^{-2})$ b) O'tkazishni bajaring: $D0E9A_{16} \rightarrow X_2$
- 512 MB axborot 16 sekundda uzatildi. Axborot uzatish tezligini baytlarda aniqlang.
- Axborot ko'rinishlari va xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

3-bilet

- Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
a) $10101_2 \cdot (1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0)$ b) O'tkazishni bajaring: $BA010_{16} \rightarrow X_2$
- 7-sinf o'quvchilarining o'rta o'qish tezligi minutiga 180 ta so'z (bir dona so'z o'rta 8 ta belgi) bo'lsa, 7 soat tinimsiz o'qiganda o'quvchi qancha KB ma'lumotni ko'zdan kechiradi?
- Axborotli jarayonlar va axborot ustida bajariladigan amallar haqida ma'lumot bering.

4-bilet

- Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
a) $1010102 + 1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^0$ b) O'tkazishni bajaring: $F0DA16 \rightarrow X_2$
- Bir kitobda 200 ta sahifa bo'lib, har bir sahifa 30 ta satrdan va har bir satr 75 ta belgidan iborat bo'lsa, kitobdagi axborot hajmini kilobaytlarda hisoblang.
- Axborotni qayta ishlash va uzatish haqida ma'lumot bering.

5-bilet

- Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
a) $1111011_2 - (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1)$ b) O'tkazishni bajaring: $BA6BA16 \rightarrow X_2$

2. O'quvchi 3,5 MB axborot o'qidi. Agar kitob hajmi 280 KB bo'lsa, u nechta kitobni to'liq o'qigan?

3. Axborotlarni qadimda kodlash va kodlashdan maqsad haqida ma'lumot bering.

6-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.

a) $11100_2 \cdot (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1)$ b) O'tkazishni bajaring: $FF02B_{16} \rightarrow X_2$

2. 6,2 GB axborotni MB, KB va baytlarda ifodalang.

3. Axborotlarni kodlash usullari haqida ma'lumot bering.

7-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.

a) $111111_2 + 1 \cdot 2^8 + 1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0$ b) O'tkazishni bajaring: $9EE0_{16} \rightarrow X_2$

2. O'quvchi 4 soatda 24 MB axborot o'qidi. O'quvchining o'qish tezligini KB/soat da aniqlang.

3. Sanoq sistemalari tarixi haqida ma'lumot bering.

8-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.

a) $1000011,011_2 - (1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^{-1})$ b) O'tkazishni bajaring: $6CA5D_{16} \rightarrow X_2$

2. Bir kitobda 240 ta sahifa bo'lib, har bir sahifa 32 ta satrdan va har bir satr 64 ta belgidan iborat. Agar uzatish tezligi 2 KB/s bo'lsa, kitobdagi axborotni qancha vaqtda uzatish mumkin?

3. Sanoq sistemalari turlari haqida ma'lumot bering.

9-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.

a) $100001_2 \cdot (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^{-1} + 1 \cdot 2^{-2})$ b) O'tkazishni bajaring: $10BAD_{16} \rightarrow X_2$

2. 1024 MB axborot 32 sekundda uzatildi. Agar kitobdagi axborot 640 KB bo'lsa, nechta kitob to'liq uzatilgan?

3. Pozitsiyali sanoq sistemalari haqida ma'lumot bering.

10-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.

a) $1011010_2 + 1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0$ b) O'tkazishni bajaring: $930707_{10} \rightarrow X_8$

2. 20 soatda 1 GB axborot uzatildi. Uzatish tezligini KB/soat da aniqlang.

3. Bilish va sanoq sistemasiga xissa qo'shgan ajdodlarimiz haqida ma'lumot bering.

11-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.

a) $1110010_2 + 1 \cdot 2^7 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1$ b) O'tkazishni bajaring: $654044_{10} \rightarrow X_8$

2. Agar test varianti o'rtaacha 20 KB (testning har bir betida 64 ta belgisi 40 ta satr) hajmga ega bo'lsa, testdagi betlar sonini aniqlang.

3. Axborotni ikkita belgi yordamida kodlash haqida ma'lumot bering.

12-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a) $1001010,111_2 - (1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1)$
 - b) O'tkazishni bajaring: $827110_{10} \rightarrow X_8$
2. Kompyuterdagi axborot hajmi 80 GB. Agar kompyuterga soatiga 128 MB axborot yozilgan bo'lsa, to'plangan axborot uchun qancha vaqt sarflangan?
3. Grafik axborotni ikkita belgi yordamida kodlash haqida ma'lumot bering.

13-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a) $101101_2 \cdot (1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^0 + 1 \cdot 2^{-1})$
 - b) O'tkazishni bajaring: $597200_{10} \rightarrow X_8$
2. 545259520 bayt axborotni KB, MB va GBlarda ifodalang.
3. Axborot miqdori va uzatish tezligi haqida ma'lumot bering.

14-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a) $101,0101_2 + 1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^{-1} + 1 \cdot 2^{-3}$
 - b) O'tkazishni bajaring: $203891_{10} \rightarrow X_8$
2. Disketa hajmi 1,38 MB bo'lsa, 40 GB ma'lumotni saqlash uchun nechta disketa kerak bo'ladi?
3. Triada va tetrada jadvallari haqida ma'lumot bering.

15-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a) $1000011,01_2 - (1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^{-2})$
 - b) O'tkazishni bajaring: $211519_{10} \rightarrow X_8$
2. Sutkasiga 200 MB axborot uzatadigan tarmoqdan 84 GB axborot necha sutkada yuborilishi mumkin?
3. Ikkilik sanoq sistemasidagi sonlarni o'nlik sanoq sistemasida tasvirlash haqida ma'lumot bering.

16-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a) $10011_2 \cdot (1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0 + 1 \cdot 2^{-1})$
 - b) O'tkazishni bajaring: $542805_{10} \rightarrow X_8$
2. Ali 3 soatda 4 GB, Vali esa 45 minutda 5460 MB axborot olgan. Ularning axborot olish tezligini taqqoslang.
3. O'nlik sanoq sistemasidagi sonlarni ikkilik sanoq sistemasida tasvirlash haqida ma'lumot bering.

17-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a) $111000101_2 + 1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^{-2}$
 - b) O'tkazishni bajaring: $90901810 \rightarrow X_8$
2. 4 GB axborot 64 sekundda uzatilgan bo'lsa, axborot uzatish tezligini aniqlang.
3. Axborot texnologiyalari haqida ma'lumot bering.

18-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
a) $100110011_2 - (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^{-1})$ b) O'tkazishni bajaring: $600654_{10} \rightarrow X_8$
2. 2 GB axborot 128 KB/minut tezlikda qancha sekundda uzatiladi?
3. Kompyuter tarmoqlari haqida ma'lumot bering.

19-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
a) $111001_2 - (1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^{-1} + 1 \cdot 2^{-2})$ b) O'tkazishni bajaring: $101101101112 \rightarrow X_{10}$
2. Behzod daftarga do'stlarining ismlarini yozdi. Ularning ko'pchiligining ismi 6 ta harfdan va faqat uchtasiniki 5 ta harfdan iborat ekan. Behzod hisoblab chiqib, do'stlarining ismlari 63 bayt ekanligini aniqladi. Behzodning nechta do'sti bor?
3. Internet haqida ma'lumot bering.

20-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
a) $11110001_2 - (1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^{-2})$ b) O'tkazishni bajaring: $1111000110002 \rightarrow X_{10}$
2. Magnitli disk siq'imi 360 KB bo'lsa, unga "Oz-oz o'rganib dono bo'lur" iborasini necha marta yozish mumkin (qo'shtirnoqlar hisobga olinmasin)?
3. WWW tarkibi haqida ma'lumot bering.

21-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
a) $1001,01_2 + 1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^{-2}$ b) O'tkazishni bajaring: $1000100010101_2 \rightarrow X_{10}$
2. Gulnoza daftar sahifasiga har biri 45 ta belgidan iborat bo'lgan 20 ta satr yozdi. Gulnozaning daftari to'lganda undagi axborot 21 KBdan iboratligi ma'lum bo'lsa, daftar necha varaqdan iborat va oxirgi sahifa to'lganmi?
3. Veb-brauzerlar haqida ma'lumot bering.

22-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
a) $101010101_2 - (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^{-1})$
b) O'tkazishni bajaring: $10001000111_2 \rightarrow X_{10}$
2. Bir kitobda 500 ta sahifa bo'lib, har bir sahifa 35 ta satr va har bir satrda 60 tadan belgidan iborat bo'lsa, kitobda necha bayt axborot bor?
3. Internet Explorer dasturi haqida ma'lumot bering.

23-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
a) $110101_2 - (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^{-1} + 1 \cdot 2^{-2})$
b) O'tkazishni bajaring: $111100001112 \rightarrow X_{10}$
2. Gorizontalligga 1280 ta nuqtali vertikaliga 1024 ta nuqtali ekrandagi rasmni kodlash uchun necha bit kerak bo'ladi?
3. Qidiruv tizimlari haqida ma'lumot bering.

24-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a) $10111111_2 + 1 \cdot 2^7 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^{-2}$
 - b) O'tkazishni bajaring: $100000001012 \rightarrow X_{10}$
2. Internetdan 40 sekunda 2 GB axborot olindi. Agar shu tezlikda axborot olinsa, 1 minutda qancha axborot olinadi?
3. Qidiruv tizimlarida ishlash haqida ma'lumot bering.

25-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a) $1100110, 1101_2 - (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^{-1})$
 - b) O'tkazishni bajaring: $10000110001_2 \rightarrow X_{10}$
2. Shoxsanam monitor ekranidagi nuqtalarini kodlashi uchun 18 bit kerak bo'ldi. Agar ekran gorizontaliga 512 nuqtadan iborat bo'lsa vertikaliga nechta nuqta bor?
3. Elektron pochta haqida ma'lumot bering.

26-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a) $101100_2 \cdot (1 \cdot 2^7 + 1 \cdot 2^{5+1} + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^{-1})$
 - b) O'tkazishni bajaring: $1111111111112 \rightarrow X_{10}$
2. Maktabda joylashgan kompyuter tarmoq orqali 1 MB axborotni 32 minutda qabul qilib olgan. Ushbu axborotni olish tezligini KB/sekunda aniqlang.
3. Axborotlarni himoyalash haqida ma'lumot bering.

27-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a) $100011111_2 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^{-2}$
 - b) O'tkazishni bajaring: $100001100101_2 \rightarrow X_{10}$
2. 10 minut davomida 25 bayt/s tezlikda xabar uzatilgan. Agar jo'natilgan axborot alifbosi 16 belgidan tashkil topgan bo'lsa, qanday miqdordagi ma'lumot yuborilgan?
3. Viruslar haqida ma'lumot bering.

28-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a) $1000011, 011_2 - (1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^{-2})$
 - b) O'tkazishni bajaring: $11011000110002 \rightarrow X_8$
2. Kichik bola alifboning 32 ta harfini biladi, u minutiga 30 ta harfdan iborat jumlar tuzib gapiradi. Shu bolaning ma'lumotlar berish tezligini bit/sekunda aniqlang.
3. Viruslardan himoyalash haqida ma'lumot bering.

29-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a) $1001101_2 \cdot (1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0 + 1 \cdot 2^{-2})$
 - b) O'tkazishni bajaring: $10001010101012 \rightarrow X_8$

2. 5 MB miqdordagi axborot 640 KB/min tezlik bilan joʻnatilgan. Shu maʼlumot toʻliq holda manzilga yetishi uchun necha sekund vaqt sarf boʻlgan?

3. Axborot va bilish haqida maʼlumot bering.

30-bilet

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.

a) $101101110_2 + 1 \cdot 2^7 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0$

b) Oʻtkazishni bajaring: $100010001101_2 \rightarrow X_8$

2. Bir oʻquvchi oʻz kompyuteridan maxsus tarmoq orqali boshqa oʻquvchiga 10 minut davomida 2 bayt/s tezlikda maʼlumot joʻnatdi. Ushbu oʻquvchi qanday miqdordagi axborot uzatishga ulgurgan?

3. Axborot tushunchasini yorituvchi maʼlumot bering.

XORIJIY (INGLIZ, NEMIS VA FRANSUZ) TIL

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 8-sinf oʻquvchilari uchun xorijiy tillardan bosqichli nazorat imtihonlari ogʻzaki tarzda oʻtkaziladi. Bosqichli nazorat imtihonlarini oʻtkazishdan maqsad oʻquvchilarning xorijiy til taʼlimi boʻyicha olgan bilim, koʻnikma va malakalarini aniqlashdan iborat. Bosqichli nazorat imtihonlarini oʻtkazishda oʻquv dasturlari asosida 25 ta bilet tuzilib har bir biletida 2 tadan savol beriladi. Xorijiy tillar chuqurlashtirib oʻqitiladigan sinflar va maktablar uchun qoʻshimcha uchinchi topshiriq beriladi.

Birinchi savol biletlarda berilgan mavzu boʻyicha matni oʻqish va mazmunini gapirib berish. Bunda oʻquvchi matni oʻqib uning mazmunini xorijiy tilda tushintirib berishi kerak. Ikkita savolga tayyorgarlik uchun 20 daqiqa vaqt beriladi. Matn hajmi 300 soʻzdan iborat boʻlishi lozim. Biletlarda berilgan mavzular boʻyicha matnlarni darsliklar va qoʻshimcha adabiyotlardan olish mumkin.

Masalan matn quyidagicha boʻlishi mumkin:

My favourite film

Last Tuesday I saw the film “Romeo and Juliet” by Shakespeare. The starring perfect. Romeo was played by Leonardo DiCaprio. And I’ll try to tell you about this film. In the town of Verona there were two rich families, the Capulet’s and the Montague’s. there was an old quarrel between those two families. One day Capulet made a great supper. At that supper Romeo saw Juliet and fell in love with her at ones. Juliet had the same feelings. Romeo asked Juliet to marry him. She agreed, but nobody knew about their plan. The next day Romeo and Juliet came to friar and he married them. Some days passed and Juliet’s father told her that she was to marry a young man whose name was Paris. Juliet didn’t know what to do. But the friar helped her. He gave her medicine and told her to go home and be ready to marry Paris. But when she drinks that medicine she will sleep for forty- two hours. Juliet did as the frair told her. Juliet’s parents thought that she was dead and put her into the family tomb. When Romeo heard that Juliet was dead he bought some poison and went to the tomb of the Capulets. Paris was there and Romeo killed him.

Then Romeo kissed Juliet on the lips and drank his poison. At this moment Juliet woke up and saw that the young man was dead. Juliet took a dagger that was on the floor and killed herself.

Ushbu matn 250 soʻzdan iborat. Bunda oʻquvchi : «5» ball olishi uchun ushbu matn maʼnosini 10 tadan kam boʻlmagan gaplar orqali tushuntirib berishi kerak.

O‘quvchilarning olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash uchun matn ma’nosini tushuntirib berishda ishlatgan gaplari soni hisobga olinadi. Gaplar grammatik va fonetik qoidalar asosida to‘g‘ri va to‘liq, mavzudan chetlashmagan va mantiqan bir-biri bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

Ikkinchi savol biletlarda ko‘rsatilgan mavzular yuzasidan suhbatlashish. Bunda o‘quvchi shu mavzu yuzasidan o‘z qiziqishlari va fikrlarini xorijiy tilda erkin bayon etishi kerak. O‘quvchi tomonidan bildirilgan fikrlar grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilganligi, fonetik jihatdan to‘g‘ri talaffuz etilganligi, nutqining ravonligi, mavzudan chetlashmaganligi va bildirilgan fikrlarning mantiqan bir-biri bilan bog‘liqligi hisobga olinadi. Fikrlar bayon etilayotganda so‘z birikmalarining noto‘g‘ri ifodalanishi, grammatik va fonetik qoidalarga rioya qilmaslik hollari bir gapning o‘zida ikki va undan ortiq kuzatilsa, o‘sha gap hisobga olinmaydi. O‘quvchi mavzuni yoritib bera olmasa o‘qituvchi o‘quvchiga mavzu yuzasidan 3 ta savol berishi mumkin. Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi.

Masalan: 1-savolga 3 ball, 2-savolga 5 ball qo‘yilsa, baholar umumlashtirilib, o‘rtacha ball chiqariladi. $3+5=8 : 2=4$ ball

O‘quvchilarni baholashda ball ular egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalardan kelib chiqib belgilanadi.

Berilgan matnni o‘qib, mazmunini gapirib berish yuzasidan baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1	O‘qilgan matn mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qila olsa, mavzu yuzasidan fikr bildirsa va uni asoslay olsa, hamda to‘g‘ri talaffuz va intonatsiya bilan gapirsa, o‘qilgan matnni to‘liq tarjima qila olsa, matn mazmuniga doir savollarga to‘liq javob bera olsa	5
2	O‘qilgan matn mazmunini qiyinchilik bilan og‘zaki bayon qila olsa, fikr bildirilsa, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiya buzilsa, o‘qilgan matnni 71-85 foiz tarjima qila olsa, matn mazmuniga doir savollarga javob bera olsa	4
3	O‘qilgan matn mazmunini qisman qiyinchilik bilan og‘zaki bayon qila olsa, fikr bildirilmasa, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyaga rioya qilmasa, o‘qilgan matnni 55-70 foiz tarjima qila olsa, matn mazmuniga doir savollarga qisman javob bera olsa	3
4	O‘qilgan matn mazmunini tushunarsiz tarzda bayon qilsa, fikr bildirilmasa, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyaga rioya qilmasa, o‘qilgan matnni 21-54 foiz tarjima qila olsa, matn mazmuniga doir savollarga javob bera olsa	4
5	O‘qilgan matn mazmunini bir-biri bilan bog‘lanmagan jumlar bilan og‘zaki bayon qila olsa, fikr bildirilmasa, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyaga rioya qilmasa, o‘qilgan matnni tarjima qila olmasa, matn mazmuniga doir savollarga javob bera olmasa	1

Suhbatni baholash mezon

No	Baholash mezon	Ball
1	Berilgan mavzuni to'liq og'zaki bayon qila olsa, mavzu yuzasidan fikr bildirsa va uni asoslay olsa, hamda to'g'ri talaffuz va intonatsia bilan gapirsa, berilgan mavzuga doir savollarga to'liq javob bera olsa	5
2	Berilgan mavzuni qiyinchilik bilan og'zaki bayon qila olsa, fikr tor bildirilsa, to'g'ri talaffuz va intonatsia buzilsa, berilgan mavzuga doir savollarga qiyinchilik bilan javob bera olsa	4
3	Berilgan mavzuni qisman qiyinchilik bilan og'zaki bayon qila olsa, fikr bildirilmasa, to'g'ri talaffuz va intonatsiaga rioya qilmasa, berilgan mavzuga doir savollarga qisman javob bera olsa	3
4	Berilgan mavzuni tushunarsiz tarzda bayon qila olsa, fikr bildirilmasa, to'g'ri talaffuz va intonatsiaga rioya qilmasa, berilgan mavzu mazmuniga doir savollarga tushunarsiz tarzda javob bera olsa	2
5	Berilgan mavzuni bir-biri bilan bog'lanmagan jumlar bilan og'zaki bayon qila olsa, fikr bildirilmasa, to'g'ri talaffuz va intonatsiaga rioya qilmasa, matn mazmuniga doir savollarga javob bera olmasa	1

8-sinflar uchun Xorijiy (ingliz, nemis va fransuz) tilidan bosqichli nazorat imtihon savollari

1-bilet

1. «Ommaviy axborot vositalari» mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «O'zim haqimda» mavzusida suhbat qilish

2-bilet

1. «Sog'liq» mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Mening bo'sh vaqtim» mavzusida suhbat qilish.

3-bilet

1. «Milliy sport turlari» mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Bozorda» mavzusida suhbat qilish.

4-bilet

1. «O'zbekistonning qadimiy shaharlari» mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Milliy kiyimlar» mavzusida suhbat qilish.

5-bilet

1. «Shifokor huzurida» mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Mening sevimli mashg'ulotim» mavzusida suhbat qilish.

6-bilet

1. «Musiq va saʼnat» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Oʻzbek milliy taomlari» mavzusida suhbat qilish.

7-bilet

1. «Supermarketda» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Tili oʻrganilayotgan mamlakat va uning poytaxti» mavzusida suhbat qilish.

8-bilet

1. «Atrof muhit muammolari» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Kino va teatr» mavzusida suhbat qilish.

9-bilet

1. «Shahar (qishloq)» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Televidenie va radio» mavzusida suhbat qilish.

10-bilet

1. «Oʻzbekistonning mashgʻur kishilari» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Xarid qilish doʻkonida» mavzusida suhbat qilish.

11-bilet

1. «Tili oʻrganilayotgan mamlakatning mashhur kishilari» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Men sevgan fasl» mavzusida suhbat qilish.

12-bilet

1. «Tili oʻrganilayotgan mamlakatning poytaxti»ga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish
2. «Tili oʻrganilayotgan mamlakatlarning milliy bayramlari » mavzusida suhbat qilish.

13-bilet

1. «Yozgi taʼtil»ga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Shifokor huzurida» mavzusida suhbat qilish.

14-bilet

1. «Milliy sport turlari» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Sayohat haqidagi taasurotlarim» mavzusida suhbat qilish.

15-bilet

1. «Doʻsti haqida»gi mavzuga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Maktabda» mavzusida suhbat qilish.

16 bilet

1. «Sport musobaqalari» mavzusiga oid matnни o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Bozorda» mavzusida suhbat qilish.

17 bilet

1. «Gazeta va jurnal» mavzusiga oid matnни o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Tabiat qo‘ynida» mavzusida suhbat qilish.

18 bilet

1. «O‘zbekistonning mustaqilligi to‘g‘risida»gi mavzuga oid matnни o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Yurtimizning diqqatga sazovor joylari» mavzusida suhbat qilish.

19 bilet

1. «O‘zbek xalqining milliy kiyimlari» mavzusiga oid matnни o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «O‘zbekiston Respublikasining bayrog‘i, madhiyasi va gerbi» mavzusida suhbat qilish.

20 bilet

1. «Mamlakatimiz poytaxti» mavzusiga oid matnни o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Men yoqtirgan mashhur sportchi» mavzusida suhbat qilish.

21 bilet

1. «Olimpiada o‘yinlari» mavzusiga oid matnни o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Tili o‘rganilayotgan mamlakat shaharlari» haqida suhbat qilish.

22 bilet

1. «Tili o‘rganilayotgan mamlakatlarga xos bo‘lgan milliy kiyimlari» matnни o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Uy-ro‘zg‘or ishlari» haqida suhbat qilish.

23 bilet

1. «Mamlakatimizning daryo, ko‘l, dengizlari» mavzusiga oid matnни o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Oziq-ovqat do‘konida» mavzusida suhbat qilish.

24 bilet

1. «Maktab binosi va hovlisi» mavzusiga oid matnни o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «O‘zi yoqtirgan milliy taomi» mavzusida suhbat qilish.

25 bilet

1. «Mashhur joylarga sayohat» mavzusiga oid matnни o‘qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Ta‘til rejalari» mavzusida suhbat qilish.

GEOGRAFIYA

8- sinf Geografiya

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 8-sinfini tugatgan oʻquvchilar geografiya fanidan DTC boʻyicha maʼlum darajada bilimga ega boʻladilar.

Oʻquvchilarning olgan bilim, koʻnikma va malakalarini aniqlash maqsadida 2013-2014 oʻquv yilida 8 sinflarda bosqichli imtihon, bilet savollariga ogʻzaki javob berish usulida oʻtkaziladi. Tayyorgarlik koʻrish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

Har bir oʻquvchiga bittadan bilet beriladi. Har bir biletida 2 ta nazariy va 1 ta amaliy topshiriq keltirilgan.

Imtihon biletida 2 ta nazariy savol oʻquvchilarning 8-sinfda “Oʻzbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursi yuzasidan oʻrganilgan mavzulari boʻyicha va 1 ta amaliy topshiriq 5-8 sinf mavzulari yuzasidan beriladi.

Bilet savollariga Oʻzbekiston Respublikasining tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklarining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, milliy iqtisodiyotning tarmoqlari, aholi va inson omili, Respublika yoqilgʻi energetikasi, agrosanoat majmuasi, aholiga xizmat koʻrsatish va turizm, xizmat koʻrsatish turlari (matbaachilik, taʼlim), Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hududiy tashkil etilishi (iqtisodiy rayonlar), atama va tushunchalar, hamda amaliy topshiriqlar kiritiladi.

Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Masalan: 1-savolga 4, 2-savolga 5, 3-savolga 3 qoʻyilib, baholar umumlashtirilib soʻngra ulardan oʻrtacha ball chiqariladi. $4+5+3=12:3=4$

Oʻquvchilarni baholashda qoʻyiladigan ball ular egallashlari lozim boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalardan kelib chiqib belgilanadi.

Nazariy savollarga berilgan javoblar baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Oʻquvchi tomonidan savollarga javob mazmunan toʻla ochib berilib, atama va tushunchalarning lugʻaviy maʼnosini toʻgʻri ayta olib, xarita bilan ishlashni toʻgʻri yoʻlga qoʻya olsa	5
2.	Oʻquvchi tomonidan savollarga javob mazmunan toʻla ochib berilib, atama va tushunchalarning lugʻaviy maʼnosini toʻgʻri ayta olib, xarita bilan ishlashda 1 ta va undan ortiq kamchiliklarga yoʻl qoʻysa	4
3.	Oʻquvchi tomonidan savollarga javob mazmunan toʻla ochib berilib, atama va tushunchalarning lugʻaviy maʼnosini izohlashda 2 ta va undan ortiq xatoliklarga yoʻl qoʻyilib, xarita bilan ishlashni toʻgʻri yoʻlga qoʻya olmasa	3

4.	O'quvchi tomonidan savollarga javob mazmunan to'la ochib berilmasa, atama va tushunchalarning lug'aviy ma'nosini izohlashda 3 ta va undan ortiq xatoliklarga yo'l qo'yilib, xarita bilan ishlashni to'g'ri yo'lga qo'ya olmasa	2
5.	O'quvchi tomonidan savollarga javob mazmunan to'la ochib berilmasa, atama va tushunchalarning lug'aviy ma'nosini izohlay olmasa, xarita bilan ishlashni to'g'ri yo'lga qo'ya olmasa	1

Amaliy topshiriq javoblarini baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	O'quvchi tomonidan topshiriqni bajarishda ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilmagan. Topshiriqning yechilish shartlari ko'rsatilib aniq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa	5
2.	O'quvchi tomonidan topshiriqni bajarishda 1 ta va undan ortiq ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Topshiriqning yechilish shartlarida 1 ta dan ortiq xatoliklarga yo'l qo'yib bajarilgan bo'lsa	4
3.	O'quvchi tomonidan topshiriqni bajarishda 2 ta va undan ortiq ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Topshiriqning yechilish shartlari ko'rsatilmagan javobi to'g'ridan to'g'ri yozib qo'yilgan bo'lsa	3
4.	O'quvchi tomonidan topshiriqni bajarishda 3 ta va undan ortiq ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Topshiriqning yechilish shartlari ko'rsatilmagan javobi to'g'ridan to'g'ri yozib qo'yilgan bo'lsa	2
5.	O'quvchi topshiriqni bajarishga urungan ammo mutlaqo xato bajargan bo'lsa.	1

Izoh: Amaliy topshiriqlarini bajarish uchun zarur o'quv jihozlari (O'zbekiston Respublikasining tabiiy, iqtisodiy va siyosiy xaritalari, dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari, globus, 6,7,8- sinf o'quv atlalari va boshqa materiallar) o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yiladi.

1 – BILET

1. O'zbekiston Respublikasining tabiiy geografik o'rni, chegaralari, chekka nuqtalari, maydoni va tabiatining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.

2. Quyidagi geografik atamalarning lug'aviy ma'nosini ayting: intensiv xo'jalik, AES, energetika tizimi.

3. Qashqadaryo iqtisodiy rayonida respublika aholisining 9,3 % yashaydi. Bu rayon Respublikada yetishtirilayotgan kartoshkaning 5 % ni beradi. Ushbu mahsulot rayon uchun iqtisodiy tarmoq bo'la oladimi yoki yo'qlmi?

2-BILET

1. O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qanday yo'lga qo'yilgan?

2. Surxondaryo viloyati xo'jaligining asosiy tarmoqlari haqida gapiring. Xaritadan viloyatning yoqilg'i sanoati markazlarini ko'rsating.

3. Dengiz suvining harorati 5°C , chuqurligi esa 3 km bo'lsa, dengiz tubidagi suv harorati qanchaga teng bo'ladi?

3 – BILET

1. O'zbekiston Respublikasi aholisining jinsi va milliy tarkibi haqida gapiring.
2. Quyidagi geografik atamalarning lug'aviy ma'nosini ayting: GES, briket, boyitish fabrikasi.
3. Masshtabi 1 : 40 000 000 xaritada daryo uzunligi 8 sm ga teng bo'lsa daryoning haqiqiy uzunligi necha km ga teng?

4 – BILET

1. O'zbekiston Respublikasining avtomobilsozlik sanoati va uning istiqbollari haqida gapiring. Xaritadan avtomobil ishlab chiqaradigan shaharlarni ko'rsating.
2. Quyidagi geografik atamalarning lug'aviy ma'nosini ayting: emigratsiya, immigratsiya, ishlab chiqarishning markazlashuvi .
3. Berilgan statistik ma'lumotlar asosida Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlari aholisining urbanizatsiya darajasini aniqlang.
 - a) Qashqadaryo viloyati aholisi soni -2 mln 78ming.k, shahar aholisi – 620 ming.k.
 - b) Sirdaryo viloyati aholi soni – 748 ming.k, shahar aholisi – 250 ming.k.

5 – BILET

1. O'zbekiston shaharlari (Toshkent, Samarqand, Buxoro) haqida gapiring va ushbu shaharlarni xaritadan ko'rsating. Arab sayyohi Ibn Battuta shaharalarimiz haqida o'z sayohatida qanday ma'lumotlarni yozib qoldirgan?
2. Quyidagi reja asosida mamlakatimizdan oqib o'tuvchi Sirdaryoga tavsif bering. (Javobingizni xaritadan ko'rsatib gapiring)
 - a) daryo qayerdan boshlanadi
 - b) uzunligi;
 - c) irmoqlari;
 - d) qaysi havzaga quyiladi?
 - e) xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
3. 1 kg quruq o'tin yonganda qancha (ming. kkal) issiqlik olinadi?

6 – BILET

1. Oziq-ovqat sanoati haqida gapiring. O'zbekistondagi yirik qandolat va choy qadoqlash fabrikalari joylashgan shaharlarni xaritadan ko'rsating.
2. Buxoro – Navoiy iqtisodiy rayonining xo'jaligi va uni hududiy tashkil etilishi haqida gapiring. Iqtisodiy rayon Respublikada hosil etilayotgan elektr energiya miqdoriga ko'ra nechinchisi o'rinda turadi?
3. Andijon viloyati maydoni $4,2$ ming km^2 , aholisi 1.01.2012 yil holati bo'yicha 2 mln 600 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, aholi zichligini toping.

7 - BILET

1. Toshkent va Farg'ona iqtisodiy rayonlariga qiyosiy tavsif bering.
2. Aholiga xizmat ko'rsatish va turizm sohalarini haqida gapiring. Xaritadan O'zbekistondagi tarixiy obidalariga boy sharlarni ko'rsating.
3. 30° g'arbiy uzoqlikdagi nuqtani qaysi soat mintaqasida joylashganligini toping?

8-BILET

1. Qorqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi haqida gapiring.
2. Navoiy viloyati xo‘jaligining asosiy tarmoqlarini ayting. Viloyat mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning necha foizini beradi?
3. Masshtabi 1: 4 000 000 sm bo‘lgan xaritada Guliston va Termiz shaharlari orasidagi masofa 12 sm ga teng bo‘lsa, shaharlar orasidagi haqiqiy masofani aniqlang.

9-BILET


1. Mashinasozlik majmuasining tarmoqlarini sanab bering. Xaritadan O‘zbekistondagi qishloq xo‘jaligi mashinalari ishlab chiqaradigan shaharlarni ko‘rsating.
2. Surxondaryo iqtisodiy rayonining xo‘jaligi va uni hududiy tashkil etilishi haqida gapiring. Xaritadan Sharg‘un va Boysun ko‘mir konlarini ko‘rsating.
3. O‘zbekistonda yanvar oyining o‘rtacha harorati -6°C , iyul oyidagi o‘rtacha harorat $+18^{\circ}\text{C}$ bo‘lsa, bir yillik havo haroratining amplitudasi necha gradusga teng bo‘ladi?

10-BILET

1. O‘zbekiston iqtisodiyotining hududiy tashkil etilishi haqida gapiring.
2. Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy tarmoqlari qaysilar? Farg‘ona shahrida yengil sanoatning qaysi turlari rivojlangan?
3. Respublikamiz viloyatlaridan birida qishloq xo‘jaligi donli ekinlarining bir yillik hosilini 100 % deb olamiz shundan, bug‘ doy 35%, arpa 25 %, sholi 17 %, jovdar 13 %, makkajuxori 10 %, ni tashkil etadi. Berilgan ma‘lumotlar asosida ularni ustunli diagrammada aks ettiring.

11-BILET

1. O‘zbekiston Respublikasining yengil sanoati haqida gapiring. Iqtisodiy xaritadan pilla chuvish fabrikalaridan 5 tasini ko‘rsating.
2. Qurilish materiallari va binokorlik sanoati haqida gapiring. Mamlakatimizda xorijiy firmalar bilan hamkorlikda qurilgan mehmonxonalarni nomini ayting.
3. Maktabingiz joy planida tasvirlangan (5,2m) tepalikning qaysi qismi nishabroq (qiyaroq) ekanligini aniqlang?



12-BILET

1. Samarqand iqtisodiy rayonining georafik o‘rni va aholisi haqida gapiring.
2. Aholiga xizmat ko‘rsatish rayonlari vujudga kelishiga ko‘ra qanday guruhlaga bo‘linadi? O‘zbekistondagi eng yirik sayyohlik markazlarini xaritadan ko‘rsating.
3. Tepalikning balandligi 18 m. uning janubi sharqiy qismi qiya, shimoli g‘arbiy qismi esa tik. Tepalikni gorizontallarda aks ettiring. Izoh: Gorizont chiziqlarni har 6 m. dan o‘tkazing.

13 – BILET

1. Quruqlik transporti haqida gapiring. Xaritadan mamlakatimizning elektrlashtirilgan temir yo‘llari qaysi shahrlardan o‘tganligini ko‘rsating.
2. Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlarini aytib bering. Viloyatning Urganch va Xiva shaharlariga qiyosiy ta‘riflang.
3. Agar joy planida siz yashaydigan 1 km uzunlikdagi ko‘cha 10 sm bilan ifodalangan bo‘lsa, ushbu planning mashtabini aniqlang.

14 – BILET

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning 5 tamoyilini aytib bering.
2. Farg‘ona viloyati xalq xo‘jaligida qaysi tarmoqlar yetakchilik qiladi? Xaritadan viloyatning mashinasozlik va metalni qayta ishlash, kimyo va neftni qayta ishlash markazlarini ko‘rsating.
3. Agar tog‘etagida barometr 740 mm ni, tog‘tepasida esa 440 mm ni ko‘rsatsa, tog‘ning o‘rtacha balandligini aniqlang.

15 – BILET

1. Energetika tizimi deb nimaga aytiladi? Mamlakatimizda energetika tizimi qanday yo‘lga qo‘yilgan? Respublikamizning eng yirik gidroelektr stansiyalari joylashgan shaharlarni xaritadan ko‘rsating.
2. Quyidagi geografik atamalarning lug‘aviy ma‘nosini ayting: Fermer xo‘jalik, briket, yo‘ldosh shaharlar.
3. Berilgan statistik ma‘lumotlarga asoslanib, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari aholisining urbanizatsiya darajasini aniqlang.
 - a) Samarqand viloyati aholisi soni – 3 mln 365 ming.k, shahar aholisi – 700 ming.k.
 - b) Surxondaryo viloyati aholi soni- 2 mln.k, shahar aholisi- 400 ming.k.

16 – BILET

1. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoniga tavsif bering. Xaritadan rayonning yirik oziq-ovqat sanoati markazlarini ko‘rsating.
2. Quyidagi geografik atamalarning lug‘aviy ma‘nosini ayting. Sanoat tuguni, hududiy ishlab chiqarish majmuasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi maydoni 448,9 ming km², aholisi 1.01.2013 yil holati bo‘yicha 30 mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, aholi zichligini toping.

17-BILET

1. O'zbekiston Respublikasining ko'mir sanoati va milliy iqtisodiyotda ko'mirdan qanday maqsadlarda foydalanilishi haqida gapiring. Xaritadan Angren, Sharg'un, Boysun ko'mir konlarini ko'rsating.

2. Buxoro viloyatining sanoati haqida gapiring. Xaritadan viloyatning yoqilg'i sanoati joylashgan shaharlarini ko'rsating.

3. Toshkent shahrida ertalab soat 6³⁰ bo'lganda Anqara shahrida soat necha bo'ladi? (Eslatma: Toshkent shahri 69⁰ sh. q uzunlikda, Anqara shahri esa 32⁰ shq. uz da joylashgan)

18-BILET

1. O'zbekiston Respublikasida mehnatda band aholining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi haqida aytib bering.

2. Surxondaryo viloyatining agrosanoat majmuasi haqida gapiring.

3. Toshkent viloyatida qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibini 100 % deb olsak, shundan, paxta 19 %, g'alla 27 %, kartoshka 1%, sabzovot va poliz ekinlari 5 %, ozuqa bop ekinlar 7 %, mevazorlar 6 %, uzumzorlar 3%, yaylovlar 32% ni tashkil etadi. Berilgan ma'lumotlar asosida ularni aylana diagrammada aks ettirib bering.

19-BILET

1. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligining qaysi tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Xaritadan asosan qora mol boqiladigan hududlarni ko'rsating.

2. Quyidagi geografik atamalarning lug'aviy ma'nosini ayting: Quyosh energiyasi, tabiiy resurslar, aholining tabiiy o'sishi.

3. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra bir sutka davomida ob-havo quyidagicha o'zgargan bo'lsa, sutka ichidagi o'rtacha haroratni aniqlang. -8°C, -10°C, -12°C, -16°C, +2°C, +4°C, -4°C, -6°C.

20-BILET

1. Mamlakatimizning qora metallurgiya sanoati haqida gapiring. Mamlakat yalpi sanoat mahsuloti hajmida qora metallurgianing salmog'i qanchaga teng?

2. Respublikamiz yalpi sanoat mahsuloti hajmida rangli metallurgianing salmog'i necha foizni tashkil etadi? Quyida berilganlardan og'ir va yengil metallarni ajratib ayting: Titan, aluminiy, mis, qalayi, magniy, oltin, platina, volfram, rux, qo'rg'oshin, nikel, kumush, molibden, uran, germaniy.

3. Jizzax viloyati maydoni 21,24 ming/km², aholisi 1.01.2012 yil holati bo'yicha 1mln 202 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, viloyat aholisining o'rtacha zichligini toping.

21-BILET

1. Neft sanoati haqida gapiring. O'zbekistonda neft qazib olinadigan konlarni xaritadan ko'rsating.

2. Qashqadaryo iqtisodiy rayoni sanoatining asosiy tarmoqlari haqida gapiring.

3. Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibini 100 % deb olsak, shundan, paxta 5 %, g'alla 3 %, kartoshka 0,1 %, sabzovot va poliz ekinlari 0,5 %, ozuqa bop ekinlar 0,4 %, mevazorlar 0,6 %, uzumzorlar 0,4%, yaylovlar 90% ni tashkil etadi. Berilgan ma'lumotlar asosida ularni aylana diagrammada aks ettiring.

22-BILET

1. O'zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etilish haqida gapiring. Hududiy mehnat taqsimoti qanday holatlarda sodir bo'ladi?

2. Toshkent iqtisodiy rayoni sanoatining asosiy tarmoqlari haqida gapiring. Iqtisodiy rayonning rangli va qora metallurgiya korxonalarini joylashgan shaharlarini xaritadan ko'rsating.

3. Samolyot 3 km balandlikda uchib bormoqda. Yer yuzasida harorat +20°C bo'lsa, samolyot uchib borayotgan balandlikdagi haroratni aniqlang .

23-BILET

1. Qashqadaryo viloyatining sanoati va "Kitob kenglik stansiyasi" haqida gapiring.

2. Quyidagi geografik atamalarning lug'aviy ma'nosini ayting: GES lar kaskadi, rekratsiya.

3. Havo harorati +10°C bo'lganda, nisbiy namlik 60 % ga teng bo'lsa, havodagi namlik miqdorini toping?

24-BILET

1. O'zbekiston aholisi va milliy tarkibi haqida gapiring.

2. Andijon viloyati sanoati haqida gapiring. Xaritadan mashinasozlik, kimyo va neftni qayta ishlash korxonalarini joylashgan shaharlarni ko'rsating.

3. Agar joy planida: a) 700 m uzunlikdagi ko'cha 7 sm; b) 1 km uzunlikdagi ko'cha 10 sm bilan ifodalangan bo'lsa, ushbu planning masshtabini aniqlang.

25-BILET

1. Yoqilg'i sanoati haqida gapiring. Sanoat korxonalarini joylashtirishda qanday tabiiy va ekologik omillar hisobga olinadi?

2. Quyidagi geografik atamalarning lug'aviy ma'nosini ayting: Magestral, eksport, import.

3. Yillik yog'in miqdori 300 mm, bug'lanish 1000 mm ga teng bo'lsa, namlik koeffitsientini aniqlang.

26 -BILET

1. O'zbekistonning qimmatbaho va og'ir metallurgiya sanoatiga tavsif bering va xaritadan mamlakatimizda aniqlangan oltin konlaridan 5 tasini ko'rsating.

2. Mamlakat miqyosida ixtisoslashgan tarmoqni qanday aniqlash mumkin?

3. Samarqand iqtisodiy rayonida Respublika aholisining 9,4 % i yashaydi. Bu rayon respublikada ishlab chiqarilayotgan donli ekinlarning 17 % ini beradi. Ushbu mahsulot rayon uchun iqtisodiy tarmoq bo'la oladimi yoki yo'qmi?

27- BILET

1. To‘qimachilik sanoati haqida gapiring. O‘zbekistonda qaysi davlatlar bilan hamkorlikda to‘qimachilik korxonalarini barpo etilgan? To‘qimachilik korxonalarini joylashgan shaharlarni xaritada ko‘rsating

2. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining asosiy sanoat markazlari va shaharlari haqida gapiring.

3. Berilgan statistik ma’lumotlarga asoslanib, Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining urbanizatsiya darajasini aniqlang.

- Xorazm viloyati aholisi soni – 1 mln 645 ming. k, shahar aholisi – 400 ming. k
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisi soni – 1 mln 704 ming. k, shahar aholisi – 780 ming. k.

28-BILET

1. Kimyo sanoati korxonalarini joylashtirishda qanday omillar hisobga olinadi? Respublikamizdagi kimyo korxonalarini joylashgan shaharlarni xaritada ko‘rsating.

2. Farg‘ona iqtisodiy rayoniga quyidagi reja asosida ta’rif bering.

- geografik o‘rni; b) aholisi; c) qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari;
- sanoatining asosiy tarmoqlari; e) shaharlari.

3. O‘zbekistonda aholining tabiiy o‘sish darajasi 472 ming kishini tashkil etib. tug‘ilganlar soni 609 ming kishini tashkil etsa o‘lganlar sonini aniqlang.

29-BILET

1. Avtomobilsozlik sanoati haqida gapiring. O‘zbekistonda qaysi rusmdagi avtomobillar ishlab chiqarilmoqda?

2. Namangan viloyatiga quyidagi reja asosida ta’rif bering.

- geografik o‘rni; b) aholisi; c) qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari;
- sanoatining asosiy tarmoqlari; e) shaharlari.

3. 6000 m balandlikka ko‘tarilgan alpinistlarning barometri 250 mm simob ustunini ko‘rsatgan bo‘lsa, shu vaqtda tog‘etagidagi havo bosimi qanchaga teng bo‘ladi?

30-BILET

1. Gaz sanoati haqida gapiring. Tabiiy gazdan qanday maqsadlarda foydalaniladi? O‘zbekistondagi gaz qazib olinadigan konlarni xaritada ko‘rsating.

2. Quyidagi geografik atamalarining lug‘aviy ma’nosini ayting: Tabiiy sharoit, dehqon xo‘jaligi, shartli yoqilg‘i.

3. 30° sharqiy uzoqlikdagi nuqtani qaysi soat mintaqasida joylashganligini toping?

O'ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI ASOSLARI

8-SINF

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan: “Xalqimizning huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi lozim, zero, mustaqillik so‘zining zamirida ham katta ulug‘ huquqqa ega bo‘lish degan tushuncha yotadi”¹, deb ta‘rif berilganligi bejizga emas. Mazkur so‘zlar mustaqilligimizning dastlabki yillarida aytilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. 2010-yil 12-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida davlatimiz rahbari “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab berar ekan, “Jamiyatning demokratiya yo‘lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liq”² ekanligini ta‘kidlaydilar.

Davlatimizning mazkur siyosatni amalga oshirishda, ya‘ni o‘quvchi-yoshlarga huquqiy ta‘lim berish, ularda milliy huquq tizimi to‘g‘risidagi tasavvurlarni uyg‘otish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonun ustuvorligini anglash, huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini yuzaga keltirishda ta‘lim muassasalarining hamda pedagoglarning o‘rni alohida mazmun kasb etadi.

Ta‘lim muassasalarida amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan huquqiy ta‘limdan bosqichli nazorat ishlarining asosiy maqsadi aynan bir vazifaga, o‘quvchilarning huquqiy ongini oshirish bilan bir qatorda, ularning qonun va qoidalarga itoatkorlik kabi ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va ushbu yo‘nalish bo‘yicha kompetentliklarni yuksaltirishga qaratilganligi bilan avvalgi bosqichli nazorat ishlaridan farq qiladi.

Jumadan, savollar mavzu doirasidan chiqmagan holda tuzilgan bo‘lib, o‘quvchilarni zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni izlab topish, keraklisini ajratib olish, tahlil qilish va qayta ishlash kabi malakalarini shakllantirishga yo‘naltiradi.

Bosqichli nazorat savollari 3 ta savoldan shakllantirilgan. 1 va 2 savollar bevosita nazariy bilimlar, 3 savol esa huquqiy masalalardan, kazuслardan iborat.

O‘quvchilarning egallagan bilimlarining yig‘indisi ularning ko‘nikma va malakalarining shakllanishiga teng. Ya‘ni o‘quvchi egallagan bilimi asosida 8-sinf o‘quvchisi uchun belgilangan talablarni (Bu talablar Umumiy o‘rta ta‘limning davlat

¹ Каримов И.А. “Юскак ҳуқуқий тафаккур – демократик жамият тақозоси. 6-том, Т.: “Ўзбекистон”, 1998, 22-б.

² Каримов И.А. “Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз таракқиётининг асосий мезонидир”. 19-том, Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011, 68-б.

ta'lim standartlarida qayd etiladi) bajarishi lozim. Bundan tashqari, o'quvchilarning xulq madaniyatida umummilliy qadriyatlar, axloq, odob tushunchalari shakllanishi va ma'lum bir ko'nikmalarga ega bo'lishlari belgilanadi. O'quvchilarning ushbu darslardan olgan bilimlari maktabning ichki qoidalariga, o'quvchi odobiga rioya qilishda aniqlanadi. Demak, davlat va huquq asoslari fani ijtimoiy fan bo'lib, bevosita o'quvchilarning xulq-atvorlariga ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun ham o'quvchining bergan javoblari baholanganda, albatta ularning xuql-atvori va amalda maktabning ichki tartib-qoidalariga rioya qilishlari, odob-axloqlari ham qo'shib baholan-sa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun quyidagi baholash tartibini havola qilmoqdamiz.

O'quvchining bergan javobi maksimal 5 ball bilan baholanadi. Bunda har bir savollarning ballari umumlashtirilib, o'rtacha ball qo'yiladi. $5+5+4=14:3=4.6$ O'quvchining bahosini yaxlitlab (4.5 dan yuqori bo'lgani uchun) 5 ball qo'yish mumkin.

O'quvchini bilimini baholash uchun quyidagi jadval taklif etiladi.

1. Nazariyaga oid qoida yuzasidan berilgan savolga o'quvchining bergan javobi quyidagi asosda baholanadi.

Nazariyaga oid qoida haqida tushunchaga ega bo'lish	1 ball
Nazariyaga oid qoidaga o'qituvchi yordamida ta'rif berish	2 ball
Nazariyaga oid qoidani yodlab berish	3 ball
Nazariyaga oid qoidani misollar bilan tushuntirish va ta'rif berish	4 ball
Nazariyaga oid qoidani to'g'ri ta'riflash va amaliyot bilan bog'lash, qonunlardan misollar keltira olish.	5 ball

2. Masala ishlash bo'yicha o'quvchining bergan javobi quyidagi asosda baholanadi.

Axloq-odob qoidalari va huquqning buzilishini aniqlash	1 ball
Berilgan masalani obyekt va subyektini topish	1 ball
Berilgan masalani huquqning qaysi sohasiga oid ekanligini aniqlash	1 ball
Berilgan masalani obyektiv, subyektiv tomonlarini ajratish	1 ball
Berilgan masalaga huquqiy baho berish	1 ball
Jami:	5 ball

3. O'quvchining xulq-atvori (axloq-odobi) olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olishi.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'zining faoliyatida aks ettirishi	1 ball
Ma'naviy manbalardan foydalana olishi	1 ball
Sinfdozlari bilan ijobiy munosabati	1 ball
So'zlashuv madaniyati	1 ball
Turli tadbirlardagi ishtiroki	1 ball
Jami:	5 ball

Davlat va huquq asoslari fani chuqurlashtirib o'qitiladigan ta'lim muassasalarida bosqichli nazorat ishi savollari 4 ta savoldan iborat bo'lib, o'qituvchi tomonidan tuziladi. Savolar mazmuniga mamlakatimiz rahbarining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", "O'zbekiston mustaqillik ostonasida" kitoblari asosida tuzish mumkin.

O'quvchiga tayyorlanish uchun 15 daqiqa beriladi. Savollar va baholash tartibini maktab metod birlashmasining qaroriga ko'ra 15 % gacha o'gartirish mumkin.

1-bilet

1. Jamiyatga berilgan ta'riflarni aytib bering.
2. Huquqiy davlat deganda nimani tushunasiz?
3. 14 Yoshli A. bilan I. poyezd yo'li relislarini birlashtirib turuvchi boltlarini burab olishdi.

2-bilet

1. Davlatning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida fikr bildiring.
2. Fuqarolik jamiyatiga ta'rif bering.
3. G. ismli voyaga yetmagan shaxs boshlang'ich sinf qizlarni aldab, ziraklarini yechib oldi.

3-bilet

1. Ibtidoiy demokratiya degan so'zga ta'rif bering.
2. Davlat belgilarini sanab bering.
3. F. ismli 16 yoshli shaxs yer osti o'tish yo'lida A. ismli ayolning zanjirini yulib oldi. Natijada ayolning bo'yni qiyilib ketdi.

4-bilet

1. Davlatning iqtisodiy funksiyasi.
2. Davlat shakllarini ta'riflang.
3. Voyaga yetmagan 13 yoshli S. va 16 yoshli A. ismli shaxslar velosipedda O. ning yonidan o'tib ketayotib, uning bosh kiyimi va besh yuz ming so'mlik uyali aloqa telefonini olib qochib ketadilar.

5-bilet

1. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining bo'linish prinsipini aytib bering.

2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qanday vazifalarni amalga oshiradi?

3. Do'stining uyidan qaytayotgan 15 yoshli M. yo'lakning 2-qavatida mast holatdagi noma'lum shaxsga duch keladi. Mast kishi undan suv so'rab, yo'lini to'sadi. Bunga javoban M. uni tinch qo'yishini so'raydi va musht bilan uning yuziga uradi. Noma'lum shaxs muvozanatni yo'qotib zinadan pastga yiqitadi va miya chayqalishi sodir bo'lib, umurtqa pog'onasi sinishi natijasida falaj bo'lib qoladi.

6-bilet

1. Jamiyatga ta'rif bering.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi qanday vazifalarni amalga oshiradi?
3. 15 yoshli Sh. yo'lovchining qimmatbaho mo'ynali bosh kiyimini olib qochdi.

7-bilet

1. Davlat va uning belgilari.
2. O'zbekistonda mavjud fuqarolik jamiyati elementlarini sanab bering.
3. 17 yoshli Z. dugonasini uyiga dars tayyorlagani bordi. Paytdan foydalanib, dugonasining parдоз qutisidan tilla zanjirini o'g'irladi.

8-bilet

1. Konfederativ davlat belgilari.
2. Oila qonunchiligida voyaga yetmaganlar huquqlari.
3. Voyaga yetmagan N. sinfdoshidan mobil telefonini so'rab olib, qaytarib bermadi.

9-bilet

1. Davlatning ichki funksiyalari.
2. Voyaga yetmaganlarni so'roq qilishda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar.
3. D. ismli doya vrach bilan kelishgan holda F. ismli onaning o'g'lini, G. ismli onaning qiziga almashtirib qo'ydi.

10-bilet

1. Davlatning boshqaruv shakli.
2. Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarining huquqlari.
3. 14 yoshli Z. ismli shaxs O'zbekiston Respublikasiga pirotexnika vositalarini olib kirayotganida bojxona xizmati tomonidan ushlandi.

11- bilet

1. Davlatning tashqi funksiyalarini sanab bering.
2. Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning javobgarliklari.
3. Qo'lbola pirotexnika vositalarini yasash uchun Z. ismli shaxs maktabning ximiya xonasidan loyabatoriya mashg'ulotlari uchun tayyorlab qo'yilgan kimyoviy moddalarni o'g'irladi.

12-bilet

1. Huquq normasiga berilgan ta'rifni aytib bering.
2. Mamlakatning asosiy qonunida mustahkamlab qo'yilgan O'zbekistonning tashqi siyosati prinsiplari.
3. Voyaga yetmagan A. qo'shinsining qo'yini o'g'iriladi.

13-bilet

1. O‘zbekiston Respublikasida qonun qabul qilish bosqichlari.
2. Monarxiyaning asosiy belgilarini sanang.
3. G. mashinani kalitini o‘zida qoldirib, uyiga kirib ketdi. 16 yoshli voyaga yetmagan qo‘shni bolalar N. va K. paytdan foydalanib mashinani minib ko‘rmoqchi bo‘lishdi. Ularning yetarlicha tajribalari bo‘lmaganligi uchun simyog‘ochga urib oldilar. Ularga jarohat yetmagan bo‘lsa-da bironing mulkiga ziyon yetdi.

14-bilet

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va uning vakolatlari.
2. Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari.
3. N. ismli 16 yoshli shaxs A. ismli ayolning bo‘ynidagi zanjirni yulib qochdi. Natijada A. ning sog‘ligigi o‘rtacha og‘irlikdagi jarohat yetdi. Keyinchalik aniqlanishicha, zanjir tilla emas ekan.

15-bilet

1. Jinoiy javbogarlikka tortish asoslari.
2. Huquqiy madaniyat.
3. Mamlakatning terma komandasi musobaqada 2:0 yutqazdi. Terma komanda fonatlari tomonidan boshlangan tartibsizliklarda 16 yoshli A. va 15 yoshli Z. bir qancha do‘konlarning oynalarini sindirdilar.

16-bilet

1. Ma‘muriy huquq.
2. Huquqiy davlat belgilari.
3. Maktab ta‘tili davomida voyaga yetmagan Z. magazinga sotuvchi bo‘lib ishga kirdi. Imkoniyatdan foydalanib, magazindan videokamerani o‘g‘riladi.

17-bilet

1. Jinoyat huquqi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va uning vakolat vazifalari.
3. Voyaga yetmagan N. ismli shaxs aldash yo‘li bilan boshlang‘ich sinf qizlarining ziraklarini yechib oldi.

18-bilet

1. Jinoyatning subyekti.
2. Siyosiy tartibot.
3. Z. ismli shaxs maktabning jismoniy tarbiya zalining kiyinish xonasidan sinfdoshlarining pullarini o‘g‘irlab oldi.

19-bilet

1. Huquq sohalari.
2. O‘zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi.
3. G va I. qorbo‘ron o‘ynayotgan edilar. O‘yin davomida N. otgan qor to‘pi G. ning ko‘ziga tegib ketdi va jarohatladi.

20-bilet

1. Fuqarolik huquqi.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari.
3. A. ismli firma rahbari 14 yoshli voyaga yetmagan shaxsni ishga oldi va kuniga 10 soatdan kattalar bilan teng ishladi. Oylikni ham kattalar bilan teng oldi.

21-bilet

1. Jinoiy javbogarlik.
2. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi.
3. 8-sinf o'quvchilari Z. va D. jismoniy tarbiya darsida janjallashib qolishdi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi ularni ajratib qo'yimoqchi bo'ldi. Z. stulni olib chetga otmqochi bo'lgandi. U borib o'qituvchiga tegdi. O'qituvchi yengil tan jarohati oldi.

22-bilet

1. Huquq tizimi.
2. Huquqiy javobgarlik
3. D. ismli shaxs voyaga yetmagan G. ismli shaxsni tilamchilikka o'rgatdi.

23-bilet

1. Huquq normalarining tuzilishi.
2. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati.
3. O'zbekistonning Qoplonbek bo'xona postida G. ismli voyaga yetmagan shaxs Qozog'istondan O'zbekistonga narkotik moddalarni olib kirishga urinish chog'ida ushlandi.

24-bilet

1. Voyaga yetmaganlik tushunchasi.
2. Ma'umuriy huquqbuzarlik.
3. Voyaga yetmagan Z. kitob do'konidan kitob o'g'rilayotgan vaqtida qo'lga olindi.

25-bilet

1. Axloq va uning belgilari.
2. Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari.
3. Voyaga yetmagan Sh. va 18 yoshli D. «Neksiya» avtomobilidan magnitafon o'g'rilayotgan vaqtida qo'lga olindilar.

26-bilet

1. Xalqaro huquq tizimi.
2. Voyaga yetaganlarni so'roq qilishda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar.
3. Dars vaqtida voyaga yetmagan G. ismli qiz R. ismli dugonasining o'rilgan sochini tortib u bilan hazil qilmoqchi bo'ldi. R. unga qayrilib, qo'li bilan uni chetlatmoqchi edi, qo'lidagi ruchka behosdan G. ning ko'zini jarohatladi.

27-bilet

1. Federativ davlat belgilari.
2. Ma'muriy javobgarlik.
3. Z. va Sh. ko'pchilikni orasida J. ni shaxsini haqoratladilar. Maktabning devoriga ham J. ni shaxsini haqorat qiladigan so'zlarni yozib qo'ydilar.

28-bilet

1. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik organi.
2. Huquq normasining belgilari.
3. N. ismli 6-sinf va X. ismli 8-sinf o'quvchilari sinf jurnalini olib, o'zlariga bir necha fandan "besh" baho qo'yishdi, M. ismli o'quvchiga esa bir nechta fandan "ikki" baho qo'yishdi.

29-bilet

1. Huquqiy munosabat.
2. O'zbekiston Respublikasida ijro hokimiyati.
3. L. ismli shaxs kvartirani o'g'irlash uchun voyaga yetmagan D. ismli shaxsdan dalolatchi sifatida foydalandi.

30-bilet

1. Huquq va uning belgilari.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ijtimoiy huquqlar.
3. 15 yoshli S. fizika xonasidan narkotik moddalarni tortish uchun tarozini o'g'irladi.

BIOLOGIYA
(ODAM VA UNING SALOMATLIGI)

“Odam va uning salomatligi” fanidan umumta’lim maktablarining 8-sinflari uchun bosqichli nazorat o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar.

So‘z boshi

“Odam va uning salomatligi” fani umumta’lim maktablarining 8-sinfida yil davomida haftasiga 2 soatdan jami 68 soat o‘qitiladi.

2013–2014 o‘quv yilida biologiya fanidan umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida 8-sinflarda “Odam va uning salomatligi” fanidan bosqichli nazorat ishlari og‘zaki so‘rov shaklida o‘tkaziladi.

8-sinfda “Odam va uning salomatligi” fani yakunlovchi kurs bo‘lganligi uchun o‘quvchilardan 8-sinf davomida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalardan tuzilgan savollar asosida 30 ta bilet shakllantiriladi. Har bir biletga o‘quvchiga 3 tadan savol beriladi. Savollarning 2 tasi nazariy, 1 tasi amaliy mashg‘ulotga oid bo‘ladi.

Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Baholar umumlashtirilib o‘rtacha baho chiqariladi. Masalan: $5+4+3=12:3=4$

Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Savollarga taalluqli bilim, ko‘nikma va malakalar mazmunan to‘liq ochib berilsa, tushunchalar to‘liq va aniq yoritilsa hamda to‘g‘ri xulosalansa.	5
2.	Berilgan savollarga taalluqli bilim, ko‘nikma va malakalarga ta’rif berishda asosan to‘g‘ri yondoshilgan, lekin izchillik buzilgan, qonuniyatlar va nazariyalar tavsifida 1-2 ta xatoliklar bo‘lsa.	4
3.	Savollarga taalluqli bilim, ko‘nikma va malakalarga qisman to‘g‘ri ta’rif berilgan, tushunchalarni izohlashda 3-4 ta xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lib, ta’riflarni xulosalashda 3-4 ta xatoliklar bo‘lsa.	3
4.	Savollarga taalluqli bilim, ko‘nikma va malakalarga qisman ta’rif berilib, to‘liq xulosalanmagan, fikrlar chalkash, tushunchalarda xatoliklar ko‘p bo‘lsa.	2
5.	Bilim, ko‘nikma va malakalar noto‘g‘ri talqin etilgan, javoblar xato bo‘lsa	1

Amaliy ish va laboratoriya mashg'ulotlarini baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Laboratoriya ishi ishni bajarish ketma-ketligiga rioya etilgan holda malakalar to'g'ri va to'liq ochib berilgan, rasm va jadvallar to'g'ri ifodalangan, to'g'ri xulosalangan bo'lsa	5
2.	Ishni bajarish ketma-ketligiga rioya etilgan. Egallagan malakalari asosida tajribalar to'liq bajarilgan, lekin natijalarni ifodalashda kichik xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa	4
3.	Egallagan malakalari asosida ishni bajarish ketma-ketligiga to'liq rioya etilmagan. Ish qisman to'g'ri bajarilgan, lekin natijalar rasm va jadvallarda ifodalangan bo'lsa	3
4.	Egallagan malakalari asosida jihozlar to'g'ri tanlangan, lekin ishni bajarish ketma-ketligiga rioya etilmagan, ishni bajarishga to'g'ri yondashilmagan bo'lsa	2
5.	Jihozlar to'g'ri tanlanmagan, ish noto'g'ri bajarilgan.	1

Amaliy ishlar va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur laboratoriya jihozlari, preparatlar va boshqa materiallar o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlanadi.

1-bilet

1. Odam organizmining hujayraviy tuzilishi.
2. Ayirish organlarining tuzilishi.
3. Epitelial to'qimani mikroskop ostida kuzatish.

2-bilet

1. To'qimalar, organ va organlar sistemasi.
2. Terining tuzilishi va funksiyasi.
3. Biriktiruvchi to'qimani mikroskop ostida kuzatish.

3-bilet

1. Organizm va tashqi muhit.
2. Ichki sekretsiya bezlari haqida umumiy tushuncha.
3. Nerv to'qimasini mikroskop ostida kuzatish.

4-bilet

1. Tayanch-harakatlanish sistemasining tuzilishi.
2. Organizmni chiniqtirish va teri gigienasi.
3. Biriktiruvchi to'qimani mikroskop ostida kuzatish.

5-bilet

1. Suyaklarning tuzilishi va tarkibi.
2. Qalqonsimon va qalqonorqa bezining tuzilishi va ahamiyati.
3. Muskullarning statik ishi.

6-bilet

1. Muskullar va ularning funksiyasi.
2. Ayrisimon bez va buyrak usti bezining tuzilishi va ahamiyati.
3. Muskullarning dinamik ishi.

7-bilet

1. Odam tanasi muskullarining asosiy guruhlari.
2. Meda osti va jinsiy bezlar.
3. Muskul va paylar shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatish.

8-bilet

1. Muskullarning ishlashi.
2. Nerv sistemasining tuzilishi va funksiyasi.
3. Eritrotsitlarni mikroskop ostida kuzatish.

9-bilet

1. Qad-qomatning shakllanishi.
2. Bosh miya.
3. Leykotsitlarni mikroskop ostida kuzatish.

10-bilet

1. Organizmning ichki muhiti.
2. Vegetativ nerv sistemasi.
3. Trombotsitlarni mikroskop ostida kuzatish.

11-bilet

1. Qonning tarkibi va shaklli elementlari.
2. Nerv sistemasi kasalliklari.
3. Jismoniy mashqlarning yurak qon tomir sistemasiga ta'sirini aniqlash.

12-bilet

1. Qon guruhlari.
2. Oliy nerv faoliyati. Shartli va shartsiz reflekslar.
3. Ko'krak qafasining harakatini kuzatish.

13-bilet

1. Immunitet.
2. Markaziy nerv sistemasining tormozlanishi.
3. So'lak fermentlarining kraxmalga ta'siri.

14-bilet

1. Qon aylanish sistemasi haqida umumiy tushuncha.
2. Oliy nerv faoliyatining asosiy shakllari.
3. Bir kecha kunduzgi ovqat ratsionini tuzish.

15-bilet

1. Katta qon aylanish doirasi.
2. Nutq va fikrlash.
3. Teri shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatish.

16-bilet

1. Kichik qon aylanish doirasi.
2. Uyqu va uning ahamiyati.
3. Tizza refleksini hosil bo'lishini kuzatish.

17-bilet

1. Qonning tomirlar bo'ylab harakatlanishi.
2. Spirtli ichimliklarning organizmga tasiri.
3. Ko'rish o'tkirligini aniqlash.

18-bilet

1. Tashqi muhit omillarining yurak faoliyati va qon bosimiga ta'siri.
2. Eshitish analizatori.
3. Chekishning inson organizmiga tasiri.

19-bilet

1. Sezgi organlarining ahamiyati.
2. Nafas olish va nafas olish organlarining tuzilishi.
3. Biriktiruvchi to'qimani mikroskop ostida kuzatish.

20-bilet

1. Ovoz apparati.
2. Muvozanat organi.
3. Qon aylanish sistemasi kasalliklari va ularni oldini olish.

21-bilet

1. O'pka va to'qimalarda gazlar almashinuvi.
2. Muskul, pay va bo'g'imlar orqali sezish.
3. Ovqat hazm qilish organlari kasalliklari va ularning oldini olish.

22-bilet

1. Ovqat hazm qilishning ahamiyati.
2. Hid va ta'm bilish organlari.
3. Nafas olish kasalliklari va ularni oldini olish.

23-bilet

1. Tishlar, ularning tuzilishi va gigienasi.
2. Homilaning rivojlanishi.
3. Bir kecha kunduzgi ovqat ratsionini tuzish.

24-bilet

1. Bolaning o‘sishi va rivojlanishi.
2. Halqum, qizilo‘ngach, medaning tuzilishi va ahamiyati.
3. So‘lak fermentlarining kraxmalga tasiri.

25-bilet

1. Ko‘payish organlarining tuzilishi.
2. O‘n ikki barmoq ichak, ingichka ichak, yo‘g‘on ichakning tuzilishi va ahamiyati.
3. Ko‘krak qafasining harakatini kuzatish.

26-bilet

1. Jigar va me‘da osti bezi.
2. Ayirish organlarining ahamiyati va boshqarilishi.
3. Yurak qon tomir tizimiga jismoniy mehnatning ta‘siri.

27-bilet

1. Orqa miyaning tuzilishi va funksiyasi.
2. Energiya almashinuvi.
3. Muskullarning dinamik ishi.

28-bilet

1. Vitaminlar.
2. Bosh miya katta yarim sharlari.
3. Qonning shaklli elementlarini mikroskop ostida kuzatish.

29-bilet

1. Modda va uning almashinuvi.
2. Yurakning tuzilishi.
3. Nerv to‘qimasini mikroskop ostida kuzatish.

30-bilet

1. Energiya almashinuvi.
2. Jigar va uning ahamiyati.
3. Mikroskopni ishchi holatga tayyorlash.

Nashriyot litsenziya raqami AI № 154. 14.08.2009.

2014-yil 6-fevralda bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x90^{1/16}. Tayms garniturası. Ofset bosma.

3,25 shartli bosma tobog‘i. 2,9 nashr tobog‘i.

... raqamli buyurtma. Adadi 175 000 nusxa.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Shayxontohur ko‘chasi, 86.

www.gglit.uz E-mail: iptdgulom@sarkor.uz, info@gglit.uz